

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 3-sentabr payshanba №35(9620)

Nomusidek sinmas yoy – or bo'lgan sadog'ida...

Bu yurt ko'hna tarixning oltin zarvarog'idir,
Bag'rida baxt undirgan baraka tuprog'idir,
Lojuvardiy suv-u soy, bolli meva bog'idir,
Yangi hayotga manzil – gulxona chaman ichra,
O'zbekim yagona el – yagona Vatan ichra.

Ulug'lari donishmand, yulduzlar sanog'ida,
Nomusidek sinmas yoy – or bo'lgan sadog'ida,
Ko'rki sha'ni madhida, g'ururi bayrog'ida,
Yangi hayotga manzil – gulxona chaman ichra,
O'zbekim yagona el – yagona Vatan ichra.

Bugun qadaming tekkan cho'l-u guliston yangi,
Jadidlar ochib bergan kitob-u urfon yangi,
Chun O'zbekiston yangi, istiqbol, imkon yangi,
Yangi hayotga manzil – gulxona chaman ichra,
O'zbekim yagona el – yagona Vatan ichra.

Sarhadingda sargashta, lol-maftun sayyoh manam,
Subhing bilan sirlashgan, saboyi dilxoh manam,
Vasfingni yozorimda aytsalar, maddoh manam,
Yangi hayotga manzil – gulxona chaman ichra,
O'zbekim yagona el – yagona Vatan ichra.

Boshi uzra sarbaland Humosi uchib yurar,
Tabiatin jannatiy havosi quchib turar,
Azal Haqning nazari, imosi tushib turar,
Yangi hayotga manzil – gulxona chaman ichra,
O'zbekim yagona el – yagona Vatan ichra.

Yurtim, dala-dashting-u bo'stoningdan aylanay,
Samarqand, Surxon yana Toshkoningdan aylanay,
Baxt sari yo'lga tushgan karvoningdan aylanay,
Yangi hayotga manzil – gulxona chaman ichra,
O'zbekim yagona el – yagona Vatan ichra...

Nargiz XUDOYBERGANOVA,
Farg'ona shahridagi "Yangi avlod"
maktabi o'qituvchisi

Finlandiya ta'limi:

muvaffaqiyat siri
metodikadami yoki jamiyatda?

3-bet



Kadrlar masalasi

Kelajak mehnat bozori: Zamonaviy bilimlar va raqamli ko'nikmalarga ega yoshlarni tayyorlash zaruriyati

Bugungi kunda jahon mehnat bozori shunchalik tez o'zgaryaptiki, endilikda faqatgina an'anaviy iqtisodiy yoki texnik bilimlarga ega bo'lish yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyatini to'liq ta'minlay olmaydi. Global raqobat va shiddatli taraqqiyot davrida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari yagona raqamli ekotizimga o'tmoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim oldida turgan eng dolzarb strategik vazifa zamonaviy bilimlarni puxta egallagan, raqamli texnologiyalar bilan erkin ishlay oladigan va yangicha intellektual salohiyatga ega yosh kadrlarni tayyorlash hamda tarbiyalashdan iboratdir.



Farhod XOLIYOROV,
TDIU o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

"Bitiruvchi sifat indeksi" nima demoqda?

Yaqinda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan e'lon qilingan va Prezidentimizga taqdim etilgan yangi tizim oliy ta'limda sifatni baholash bo'yicha mutlaqo yangi davrni boshlab berdi. Mamlakatimizda ilk bor joriy etilayotgan **"Bitiruvchi sifati indeksi"** OTMlarning faoliyatini talabalarga shunchaki diplom berilgani bilan emas, balki ularning mehnat bozorida qanchalik muvaffaqiyat qozonayotgani, ishga joylashish tezligi, bandlik barqarorligi va daromadi darajasi bilan baholaydi. Eng e'tiborli jihati, ushbu yangi indeks inson omilisiz, 10 ta davlat axborot tizimining o'zaro integratsiyasi orqali avtomatlashtirilgan holda shakllantiriladi. Mazkur jarayonning o'zi davlat miqyosidagi ulkan raqamli integratsiya namunasidir. Bu islohot OTMlar va professor-o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi: biz endi bozor talab qilayotgan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga mas'ulmiz. Ta'lim sifati auditoriyalarda emas, bitiruvchilarimizning mehnat bozoridagi real natijalarida namoyon bo'lishi shart.

Raqamli ko'nikmalar va texnologik savodxonlik

Bugun mehnat bozorida eng xaridorgir va yuqori baholanadigan kadrlar bu nafaqat o'z sohasining nazariyasini biladigan, balki zamonaviy dasturiy ta'minotlar, axborot tizimlari va tahliliy platformalar bilan ishlay oladigan yoshlardir. Chunki zamonaviy korxonalar o'z ish jarayonlarini to'liq raqamlashtirmoqda, tarqoq tizimlarni yagona tarmoqqa birlashtirmoqda. Xalqaro tahlillarga ko'ra, ish jarayonlarida zamonaviy raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanish korxonalarda vaqtni tejash, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilish tezligini bir necha barobar oshirish imkonini beradi. Biroq bozorda texnologiyadan ko'ra, shu texnologiya tilini tushunadigan, uni tahlil qila oladigan, zamonaviy bilimlarga ega yoshlar yetishmovchiligi yaqqol sezilmoqda. Shu bois, biz talabalarga faqat quruq qoidalarini emas, balki amaliy raqamli ko'nikmalarni o'rgatishimiz lozim.

"5T" tamoyili va Karyera markazlarining roli Prezidentimiz huzuridagi taqdimotda belgilab berilgan, ya'ni "5T" tamoyili (ta'lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish) va universitetlar qoshida tashkil etilayotgan professional Karyera markazlari aynan shu muammoning amaliy yechimidir. Karyera markazlarining samaradorligi endi qog'ozdagi hisobotlar bilan emas, bitiruvchilarning zamonaviy kompaniyalarda o'z o'rnini topishi va real natijalarga erishishi bilan o'lchanadi.

Biz talaba yoshlarimizda nafaqat nazariy iqtisodiy bilimlarni, balki raqamli muhitda ishlash mas'uliyati, mehnatsevarlik va yuksak texnologik tafakkur madaniyatini shakllantirishimiz kerak. Har qanday mukammal tizimni baribir inson boshqaradi. Demak, yosh avlodning intellektual tarbiyasi zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos kelishi bugungi kunning hayotiy zaruriyatidir.

Ilm-fan va amaliyot integratsiyasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida ham ilmiy-tadqiqot va o'qitish metodikasini bevosita ushbu mezonlarga moslashtirish ushida izlanishlar olib bormoqdamiz. Maqsadimiz talabalarga universitet devorlari ichidayoq zamonaviy bilimlarni axborot texnologiyalari va amaliy laboratoriyalar orqali uyg'unlashtirib o'rgatishdir.

Yangi islohotlarda belgilangan Ilmiy klasterlar doirasida yoshlarimizning bitiruv-malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari shunchaki javonlarda qolib ketuvchi qog'oz emas, balki real iqtisodiyot tarmoqlaridagi jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy yechimlar bo'lishi shart.

Tashabbus

O'n besh yillik o'qituvchilik faoliyatim davomida o'quvchilarim bilan minglab soatlarni birga o'tkazdim. Ularning oddiy, ammo ba'zan kattalarni ham chuqur o'ygatadigan savollariga quloq tutdim. Sinfga kirib, o'quvchilarimning porlab turgan ko'zlariga boqarkanman, bolaga shunchaki o'qish va yozishni o'rgatishning o'zi kifoya emas degan haqiqatni har safar qayta anglayman. Har bir bolaning dunyoni o'zicha ko'rishi, bir xil vaziyatga turlicha munosabat bildirishi doimo diqqatimni tortgan.



TASHABBUS VA LOYIHA

An'anaviy ta'limga ko'ra o'qituvchi ko'pincha bolaga tayyor bilimni beradi, so'ng shu bilimni o'zlashtirish va qayta takrorlash kutiladi. Bunday dars uslubi shaxsan mening muallim sifatida mavqeyimni o'quvchilarim oldida bir pog'ona pasaytirgandek tuyuladi. Shu bois uzoq yillik izlanish va tajribalarim natijasida "FikrLab" – "Fikrlar laboratoriyasi" loyihasini ishlab chiqdim. "FikrLab" – boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy, ijodiy, mantiqiy va optimal fikrlash ko'nikmalarini, shuningdek, hissiy intellektini rivojlantirishga qaratilgan mualliflik metodikasi va ijtimoiy loyihadir.

Loyiha 7–12 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan. Bilamizki, aynan shu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, mantiqiy tafakkuri, tengdoshlari va kattalar bilan munosabati, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish kabi muhim ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Bola "Bu nima?" degan savoldan tashqari, "Nima uchun?", "Agar boshqacha bo'lsa-chi?", "Buni qanday isbotlash mumkin?", "Boshqa qanday yechim bor?" degan savollarni ham bera boshlashi kerak.



"FikrLab" loyihasi kitob holatida 2 tilda nashr qilindi. Ushbu kitob sog'lom, ijodiy, optimal va tanqidiy fikrlash kabi boblardan iborat. Loyiha asosida yaratilgan kitobda bolalar bilan muloqot qiladigan, ularni izlanishga chorlaydigan Donish, Bilag'on va Zukko kabi obrazli qahramonlar ham bor. Donish – hamma narsaga qiziquvchan, izlanuvchan va savol berishdan charchamaydigan bolakay bo'lsa, Bilag'on – vaziyatlarga aql va idrok bilan yondashadigan dono robot. Zukko esa mitti, ammo hozirjavob va topqir qush. Ularning har biri bolaning fikrlash jarayonida o'ziga xos hamroh vazifasini bajaradi.

Shuningdek, qahramonlar bolani avval muammoli vaziyatga duch keltirib, so'ng uni vaziyatni tahlil qilish va o'z fikrini bemalol asoslashga undaydi. Bundan tashqari, loyihada yana bir muhim

yo'nalish – umumta'lim maktablarida ijtimoiy-fikrlash burchaklarini tashkil etish tashabbusi ilgari surilgan. Bunday burchaklarni kichik tafakkur laboratoriyasiga qiyoslash mumkin. Bu yerda bolalar darsdan tashqari vaqtda mantiqiy topshiriqlar bajaradi, boshqotirmalar yechadi, turli savollar ustida fikr yuritadi, o'zaro munozara asosida jamoaviy o'yinlarda qatnashadi.

Aytaylik, "Tabiatni qanday asrashimiz mumkin?" degan savolga bir bola daraxt ekishni taklif qilishi mumkin, boshqa biri suvni tejash haqida gapiradi, yana biri chiqindilarni saralashni taklif etadi. Bu javoblarning qaysidir biri yagona "to'g'ri" javob bo'lmasligi mumkin. Muhimi, bola o'z fikrini shakllantiradi, uni asoslaydi va boshqalarning qarashlarini tinglashni o'rganadi. Shuningdek, "FikrLab"da bolalar falsafasi, geymifikatsiya va STEAM yondashuvlarining ayrim elementlaridan foydalanish ham ana shu maqsadga xizmat qiladi. Murakkab ilmiy yoki hayotiy jarayonlar o'yin, muammoli vaziyat va amaliy topshiriqlar orqali o'rganiladi.

Loyihaning yana bir muhim yo'naliishi hissiy intellektni rivojlantirishdir. Bilasiz, bugungi kunda boladan faqat yaxshi o'qish talab qilinishi yetarli emas. U o'z his-tuyg'ularini anglay olishi, ularni boshqarishi, boshqalarning kechinmalarini tushunishi, hamkorlik qilishi va kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal eta olishi ham muhim.

Dastlabki "FikrLab" burchaklarini maktabimizda o'z shaxsiy mablag'larim hisobidan jihozladim. Bolalarga kitoblarni sovg'a qildim, o'qituvchilar bilan suhbatlashdim, metodikadan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr almashdim. Ko'pincha katta yangiliklar avvalo markazdan boshlanishi kerak, degan qarash mavjud. Ammo men loyiham bilan sharoiti nisbatan cheklangan, ammo ta'limga ehtiyoji va qiziqishi katta bo'lgan qishloq maktablariga borishni maqsad qildim.

Bu yo'lda sarflangan har bir mablag'ni bolalarning ko'zidagi quvonch, "Topdim!" degan hayqirig'i, kutilmagan savollari va mustaqil xulosalari oqladi. Eng katta natija uning ilgari o'ylamagan savolni berishi, o'z fikrini dadil aytishi yoki muammoning boshqalar ko'rmagan yechimini topishidir. Bugun bu tashabbusni yanada kengaytirish, ijtimoiy-fikrlash burchaklarini O'zbekistonning turli hududlaridagi maktablarga olib kirish niyatidaman.

Diana HASANOVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
35-maktabning oliy toifali
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Xorijda ta'lim

Finlandiya ta'limi haqida ko'p eshitganman. Kimdir uning muvaffaqiyatini zamonaviy texnologiyalar bilan izohlaydi, yana kimdir sirni noodatiy metodikalarda deb hisoblaydi. Men esa bu savolga javobni kitoblardan emas, bevosita Finlandiya-ning o'zidan izlash imkoniga ega bo'ldim.

Yaqinda Finlandiya va Shvetsiya ta'lim muassasalarida, jumladan, dunyoga mashhur Yuvaskula universitetida bo'lib, dars jarayonlarini kuzatdim, o'qituvchilar bilan suhbatlashdim, kutubxonalarga bordim, jamoat transportida oddiy odamlarning turmush tarzini kuzatdim. Safar yakunida o'zinga bitta savol berdim: Finlandiya ta'limining haqiqiy siri nimada? Javob esa men kutgandek murakkab emas ekan.

Sehrlil metodika yo'q

Ko'pchilik o'ylagandek, Finlandiyada darslar qandaydir sirli yoki mo'jizaviy usullar bilan o'tilmaydi. Men kuzatgan mashg'ulotlarning aksariyatida oddiy doska, marker, kitob va o'qituvchining jonli muloqoti asosiy vosita edi. Shunda tushundim: muvaffaqiyat metodikada emas. Asosiy farq – o'qituvchiga bo'lgan ishonchda.

U yerda pedagogni ortiqcha hisobotlar bilan band qilishmaydi. Kimdir har kuni uning darsini tekshirib, qanday metod qo'llayotganini nazorat qilib o'tirmaydi. O'qituvchi o'z ishinig egasi. Undan faqat bitta narsa so'raladi – natija. Ishonch bor joyda esa mas'uliyat ham bo'ladi.

O'qituvchi bo'lish – sharaf

Finlandiyada pedagogika yo'nalishlariga tasodifiy odamlar emas, eng munosib yoshlar tanlab olinadi. Chunki ular bitta haqiqatni yaxshi tushunishadi: yaxshi maktab avvalo yaxshi o'qituvchidan boshlanadi. Biz esa ba'zan buning teskarisini qilamiz. Avval kasbga qabul qilamiz, keyin esa attestatsiya, sertifikat va imtihonlar bilan sifatni oshirishga urinib ko'ramiz. Aslida

FINLANDIYA TA'LIMI:

muvaffaqiyat siri metodikadami yoki jamiyatda?



esa sifat eshikdan kirishda boshlanishi kerak. Yana bir narsani chuqur angladim. O'qituvchi fan professori bo'lishi shart emas. Ammo u bolaga o'rgatishni bilishi shart. Ilmni bilish boshqa, uni bola qalbi va tafakkuriga yetkazish esa mutlaqo boshqa san'at.

Reyting emas, haqiqiy bilim

Finlandiya xalqaro PISA tadqiqotlarida qatnashadi. Ammo ular ta'limni reyting uchun emas, bola uchun tashkil etadi. Maktablarda kundalik standartlashtirilgan testlar juda ko'p emas. O'qituvchi bolaning rivojlanishini o'zi kuzatadi, baholaydi va yo'naltiradi. Yakuniy milliy imtihon esa umumiy o'rta ta'lim oxirida topshiriladi. Bu yerda asosiy maqsad test yechishni emas, fikrlashni biladigan insonni tarbiyalashdir.

Meni eng ko'p hayratlantirgan manzara

Yuvaskula universitetiga poyezdda qariyb besh soat yo'l bosib bordik. Yo'l davomida o'zim bilan olib borgan "Ehromlar

qizi Laylo" romanini mutolaa qilib bordim (Bizning jamiyatda bu g'alati tuyulsa-da, bu odatimni tashlamaganman). Bir payt atrofga nazar tashladim. Deyarli barcha yo'lovchilar kitob yoki gazeta o'qiyotgan edi. Bu, albatta, men guvoh bo'lgan bir holat. Ammo shu manzara jamiyatda mutolaaning qanchalik tabiiy odatga aylanganini yaqqol ko'rsatardi. Ammo meni bundan ham ko'proq hayratga solgan joy – kutubxona bo'ldi. Kutubxona oldida bolalar aravachalari uchun alohida joy bor edi. Ichkariga kirganimda esa ota-onalar kitob o'qiyotganini, yonida emaklayotgan go'daklarni, hatto chaqaloqlarni ko'rdim. Ha, kitobxonlik maktabda emas, oilada boshlanadi. Farzand kitobni avval ota-onasining qo'lida ko'radi. Kutubxona bolaning hayotiga qanchalik erta kirs, kitob ham shunchalik tez uning bir umrlik hamrohiga aylanadi.

Muvaffaqiyat siri nimada?

Safar davomida yana bir narsani kuzatdim. Ilm-fanga homiylik qilish, ta'limni

qo'llab-quvvatlash va jamiyat manfaatiga xizmat qilish odati odamlarning hayot tarziga aylangan. Shunda maqolaning boshidagi savolga javob topdim. Finlandiyaning muvaffaqiyat siri metodikada emas ekan. Uning siri – ilmni qadrlaydigan jamiyatda. Kitob o'qiydigan oilada. O'qituvchiga ishonadigan davlatda. Farzandining tarbiyasini faqat maktab zimmasiga yuklamaydigan ota-onada.

Men Finlandiyadan yangi metodika olib qaytmadim. Yangi dars ishlanmalari ham olib kelmadim. Ammo bir haqiqatni olib qaytdim. Ta'limni faqat maktab yaratmaydi. Uni oila yaratadi. Uni kitob yaratadi. Uni o'qituvchiga bildirilgan ishonch yaratadi.

Biz xorijdan mo'jizaviy metodikalarni izlashdan ko'ra, avvalo jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini, ilmga hurmatni va o'qituvchiga ishonchni kuchaytira olsak, ta'limdagi eng katta islohot aynan shundan boshlanadi. Eng muhimi, har birimiz bitta oddiy haqiqatni anglashimiz kerak: jamiyatni o'zgartirishni boshqalardan kutib bo'lmaydi. "O'zgarish sendan emas, undan emas – o'zgarish mendan boshlanadi", degan tamoyil hayot tarzimizga aylansagina haqiqiy taraqqiyot boshlanadi.

Farzandimizga kitob olib berish, u bilan kutubxonaga borish, o'qituvchiga hurmat ko'rsatish, ilmni qadrlash kabi oddiy tuyulgan amallar aslida buyuk o'zgarishlarning poydevoridir. Chunki jamiyat bir kunda o'zgarmaydi. Jamiyat avvalo inson o'zgariganda, inson esa o'zidan boshlaganda o'zgaradi.

Zero, kuchli ta'limni metodika emas, uni qadrlaydigan jamiyat yaratadi. Kuchli jamiyat esa har bir insonning: "O'zgarish mendan boshlanadi", degan qat'iy e'tiqodidan bunyod bo'ladi.

Zohida OBLAYEVA,
Yangihayot tumanidagi
332-maktab o'qituvchisi

Ta'kid

SUN'IY INTELLEKT VA TA'LIM: KELAJAKKA YO'L OCHUVCHI TEKNOLOGIYA

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi arafasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga keng joriy etish, raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) insoniyat taraqqiyotining eng muhim drayverlaridan biriga aylandi. U nafaqat iqtisodiyot, sanoat yoki tibbiyotda, balki ta'lim tizimida ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etish, bilim berish sifatini oshirish va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda sun'iy intellektdan samarali foydalanishni dolzarb vazifaga aylantirdi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqda-ki, AQSH, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda sun'iy intellekt ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Generativ platformalar talabalarning bilim darajasini tahlil qilish hamda o'qituvchilar mehnatini yengillashtirishda keng qo'llanilmoqda.

Mamlakatimizda ham raqamli ikti-

sodiyot va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash, professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish va sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga keng joriy etishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Bugun sun'iy intellekt ta'lim jarayonida o'quv materiallarini yaratish, test va topshiriqlarni tayyorlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, multimedia vositalarini ishlab chiqish hamda talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu esa professor-o'qituvchilarga ko'proq ilmiy izlanishlar va talabalar bilan ijodiy ishlash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanish yuqori mas'uliyatni ham talab qiladi. Generativ platformalar har doim ham mutlaqo ishonchli ma'lumotni taqdim etmasligi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash, manbalarni tekshirish, akademik halollik va raqamli madaniyat tamoyillariga qat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Institutda raqamli ta'lim resurslarini yaratish, generativ sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish, talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda professor-o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda.

Shuningdek, institut olimlari sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning ilmiy-metodik asoslarini tako-

millashtirish, raqamli kompetensiyalar modelini ishlab chiqish, xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimiga moslashtirish hamda ushbu texnologiyalarning huquqiy va axloqiy jihatlarini tadqiq etish bo'yicha izlanishlar olib bormoqdalar.

Bugun mehnat bozori raqamli texnologiyalarni chuqur o'zlashtirgan, tahliliy fikrlay oladigan va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko'nikmasiga ega mutaxassislarni talab etmoqda. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari oldida raqamli transformatsiya talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Albatta, sun'iy intellekt o'qituvchi o'rnini bosmaydi. Aksincha, u pedagogning intellektual imkoniyatlarini kengaytiruvchi, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy vositadir. Insonning ijodkorligi, pedagogik mahorati va mustaqil fikrlashi har qanday texnologiyadan ustun turadi.

Zero, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga ilmiy asosda joriy etish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va innovatsion fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash Yangi O'zbekistonning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bozorboy SULTONOV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti
"Axborot texnologiyalari" kafedrasini
o'qituvchisi,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent



Mulohaza

Sifat, samara va natijadorlik – yagona zanjir halqalari

Davlatimiz rahbari respublikamiz bo‘ylab qaysi korxona yo tashkilotda bo‘lmasin, mas‘ul shaxslar bilan uchrashganda doimo uchta tushunchani – sifat, samara va natijadorlikni takror-takror urg‘ulashi bejiz emas. Chunki amalgashirilgan har qanday ishning qiymati, oxir-oqibat, uning natijasi va samarasi bilan o‘lchanadi, natija esa sifatga bevosita bog‘liqdir. Prezidentimiz qayta-qayta ta‘kidlayotganidek, “najot ta‘limda, najot bilimda, najot ilmida”. Demak, jamiyatni, xalqni ulug‘ maqsadlar sari olg‘a boshlashning yagona yo‘li – yosh avlodga berilayotgan ta‘lim-tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois “Ta‘lim sifati oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘li” deb ta‘kidlanishi tasodifiy emas. Ta‘limdagi natijadorlik va samara, avvalo, uning sifatiga bevosita bog‘liq. Shu o‘rinda bir haqiqatni unutmaslik kerak: bir karra ta‘lim berish – ikki karra ta‘lim olish demakdir. Ta‘lim berishning o‘ziga xos mashaqqati, zavqi, muhim usul va uslublari mavjud. Bilish boshqa masala, egallagan bilimni boshqalarga yetkazish va unga amal qildirish esa butunlay boshqa masala. Ilm bilan amal birlikda bo‘lmas ekan, samara haqida gapirish o‘rinsiz. Sifatli ta‘lim masalasi, eng avvalo, intellektual salohiyatga ega, zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollangan, teran tafakkurli, dunyoqarashi keng bo‘lgan muallimga bog‘liq – bu ayni haqiqat. Mazkur maqolada biz aynan shu haqiqatning ikkinchi, ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladigan qirrasiga – pedagogning O‘ZI bilgan bilimni O‘ZGALARGA qanday yetkaza olishi, uning kommunikativ kompetentligi, nutq madaniyati va notiqlik san‘atiga to‘xtalamiz. Zero, ko‘p yillik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarimizning bilim salohiyati talab darajasida bo‘lsa-da, uni o‘quvchi yoki talabaning ongiga singdirish mahorati ko‘pincha orqada qolmoqda.

Bilish boshqa, yetkazish boshqa: konseptual farq

O‘qituvchi ko‘p bilimga ega bo‘lsa, axborot texnologiyalarini mukammal o‘rgangan bo‘lsa, hatto sertifikatlariga ega bo‘lib bir nechta xorijiy tilni bilsa, o‘zining bo‘yi barobar kitob, monografiya va ilmiy maqolalar yozgan bo‘lsa ham – bu hali ta‘limning sifatli va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi degani emas. Bu masalaning faqat bir qirrasidir, xolos. Chunki ta‘limning haqiqiy sifatli bo‘lishi uchun jahon miqyosidagi sohaviy yangiliklar va bilimlarni chuqur o‘rganish, hamkorlik rishtalarini mustahkamlash, yetuk mutaxassis va malakali o‘qituvchilar tajribasini keng omalashtirish kabi vazifalar ham asosiy maqsaddan ajralmas holda amalga oshirilishi lozim. Bu fikrni yaqqolroq tasavvur etish uchun oddiy bir misolni keltiraylik. Tasavvur qiling, jamoaga yangi o‘quv yili munosabati bilan osh berish niyatida taom masalliqalarini keltirish

uchun bir kishini yollaymiz va unga asl dehqon yetishtirgan sifatli mahsulotlardan keltirishni tayinlaymiz. U barcha masalliqalarni – guruch, piyoz, sabzidan tortib yog‘-u go‘shrigacha – sifatli holda keltiradi, oshpaz uni tayyorlashga kirishadi, lekin natijada osh xom-xatala bo‘lib qoladi. Xo‘sh, bunda kim aybdor? Bozorga borib-kelganmi, mahsulotni yetishtirgan dehqonmi, yoki uni sotganmi? Albatta, bunda oshpaz aybdor – uning osh tayyorlash kompetensiyasi, kasbiy uquvi yetarli emas ekan aniq bo‘ladi. Demak, oshpaz o‘z tajribasi va malakasini yanada oshirishi zarur. Ushbu metaforani pedagogika sohasiga ko‘chirsak, oshpazni muallimga, keltirilgan masalliqalarni esa o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va darsliklarga qiyoslash mumkin. Darslik qanchalik mukammal bo‘lmasin, o‘quv materiali qanchalik puxta tayyorlanmasin, ularning barchasi yakuniy natija – ya‘ni o‘quvchi yoki talabaning bilim va ko‘nikma darajasi uchun yetarli shart emas. Asosiy omil – bu materialni to‘g‘ri “pishiradigan”, ya‘ni o‘zlashtirish oladigan pedagogning mahoratidir.

Kommunikativ kompetentlik – sifatli ta‘lim kaliti

O‘qituvchining kommunikativ kompetentlik darajasi yetarli bo‘lmasa – ya‘ni nutq madaniyati, til imkoniyatlaridan o‘rinli va unumli foydalana olish qobiliyati, boshqacha aytganda notiqlik mahorati mukammal bo‘lmasa – sifatli ta‘lim talabi hech qachon to‘liq yuzaga chiqmaydi. “Ishning ko‘zini bilish” degan ibora aynan shu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Ko‘p yillik ish faoliyati, tajriba va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik o‘qituvchilar yetarli bilimga ega bo‘lsa-da, ular fan mavzusini, o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmani o‘quvchi yoxud talabaning ongiga singdirish mexanizmini – ya‘ni kommunikativ kompetentlikni, nutq madaniyatini to‘la va chuqur egallab ulgurmagan bo‘ladi. Natijada bu holat sifatli ta‘limning samarasiga zid bo‘lgan holat sifatida namoyon bo‘ladi: bilim bor, lekin u yetkazilmaydi; material tayyor, lekin u “yonmaydi”. Dunyoning ta‘lim sohasida yetakchi mamlakatlari – jumladan, Yaponiya va Finlandiya tajribasiga nazar tashlasak, o‘quvchini qiziqitirish, unda mustaqil va mantiqiy mushohada yuritish ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan yondashuv ana shu davlatlar ta‘lim tizimining “jon va qon tomiri” tashkil etadi. Demak, bilimni quruq bayon qilish emas, balki uni o‘quvchi qalbiga va aqliga yetkaza olish san‘ati – zamonaviy pedagogika falsafasining markaziy ustunidir. Respublikamizda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishlarida ta‘lim va tarbiyaning o‘rni, ilm-fanning qiymati, muallim mavqeyi haqida e‘tiborga molik mulohazalar ko‘p bor

bildirilgan. Jamiyatga e‘tibor masalasi – xalqning ertasi, sifatli ta‘lim bilan bevosita bog‘liqligi qayta-qayta uqtirilgan. Maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus hamda oliy ta‘lim bosqichlari uzviy, izchil va tizimli ravishda bir-birini to‘ldiruvchi, boyituvchi tarzda tashkil etilishi zarurligi ham shu nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga ega.

Til – fanning ruhi, nutq – bilimning qiyofasi

Prezidentimizning oldingi chiqishlarida ta‘kidlanganidek, o‘n yil davomida ta‘lim olgan o‘quvchi nahotki, ikkita xorijiy tilni bilmaydi – vaholanki, repetitorga borgan o‘quvchi bir yilning o‘zida tilni o‘rganib oladi. Demak, bizning ta‘lim berish tizimimiz hali ko‘ngildagidek emas. Shuningdek, ko‘pchilik darsliklarning eski usulda tayyorlanganligi, bugungi o‘quvchining dunyoqarashiga mos emasligi, jahon andozalariga moslab ishlab chiqilmaganligi ham alohida ta‘kidlangan.

Bu yerda muhim bir jihatga e‘tibor qaratish lozim: o‘qituvchi tabiiy fanlardan dars beradimi, ijtimoiy-siyosiy yoki gumanitar fanlardan – baribir, u tilning ifoda imkoniyatlarini, nutq madaniyatini to‘la egallagan bo‘lishi shart. Aks holda, fanning, mavzuning mohiyati to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Fizik qonuniyatlarni ham, kimyoviy reaksiyalarni ham, geometrik aksioma va teoremlarni ham, matematik sinus-kosinuslar ham pedagog tomonidan qaysi tilda tushuntiriladi? Albatta, o‘z ona tilida – davlat tilida. Demak, agar til chala bo‘lsa, tushuntirilayotgan fan mavzusi ham chala bo‘ladi. Xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan mehnat, aslida, o‘z ona tiliga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi, chunki til doimo qiyoslash orqali o‘rganiladi. Ona tili chala bo‘lsa, boshqa tillarni ham mukammal egallash amrimahol. Demak, nutq mahoratiga ega, nutq xususiyatlarini yaxshi bilib, nutq texnikasiga puxta amal qila oladigan, tili burro, talaffuz me‘yori ham, tafakkur darajasi ham aniq va tiniq bo‘lgan murabbiylarning dars jarayoniga jalb etilishi, shuningdek, ularning ritorik mahoratini muttasil oshirib borish – ta‘limning sifati va samarasiga bevosita daxldor masaladir. “Nutqiy nuqsoni bor bo‘lgan muallim garchi bilimli bo‘lsa ham sinfga qo‘yilmasin, chunki bolalar taqlidchi bo‘lishadi, unga ergashishadi”, deb Rossiya imperatori Pyotr I o‘z davrida maxsus farmon chiqargan edi. Har ikki gapida bir “tak”, “znachit”, “toys” deb turadigan o‘qituvchini tinglagan o‘quvchining g‘ashi kelishi tabiiy hol. Ajablanarli emaski, bunday pedagogga shogirdlar tomonidan istehzoli laqablar ham qo‘yib yuborilishi mumkin. Nutqning aniqligi – tafakkur aniqligidan, talaffuzning tiniqligi esa – tafakkur tiniqligidan kelib chiqadi, buni

hech qachon unutmaslik kerak. Qaysi sohada, qaysi kasbda ishlamaylik, qaysi fandan dars bermaylik – avvalo, hammamiz nutq madaniyatini, notiqlik san‘atini mukammal egallagan bo‘lishimiz shart. Faqat shundagina o‘quvchi bizga ergashadi, faqat shundagina u o‘zi o‘rganayotgan fanni chin dildan sevib qoladi. Aks holda, aytilgan gap bir qulog‘idan kirib, ikkinchisidan chiqib ketaveradi – bundan esa hech qanday naf yo‘q.

Amaliy tajriba: to‘rt o‘qituvchi, bitta videorolik

Ta‘lim sifati ta‘minlashda notiqlik san‘atining tutgan o‘rnini aniq ko‘rsatish maqsadida yaqinda bir amaliy tajriba o‘tkazildi. O‘zining 32 soatlik maxsus o‘quv-amaliy dasturiga ega bo‘lgan “Notiqlik san‘ati akademiyasi” ta‘lim muassasasida to‘rt nafar o‘qituvchi (ulardan ikki nafari litsey, ikki nafari esa texnikum pedagoglari) ishtirokida sinov o‘tkazildi. Ularning har biriga bir xil, besh daqiqalik videorolik ko‘rsatildi va diqqat bilan kuzatgan mazmunni o‘z so‘zlari bilan gapirib berishlari so‘raldi. Natija diqqatga sazovor bo‘ldi: birinchi o‘qituvchi xuddi antennasi yo‘q televizorda bijir-bijir tasvir ko‘rgandek taassurot uyg‘otib, mujmal va tushunarsiz gapirdi. Ikkinchi o‘qituvchi esa go‘yo oq-qora televizorda ko‘rgandek, quruq va rangsiz fikr berdi. Uchinchi ishtirokchi xuddi rangli televizorda tomosha qilgandek zavqli va jonli taassurot bera oldi. To‘rtinchi o‘qituvchi esa go‘yo 3D, 5D formatda “namoyish” qilib berdi – uning bayoni shu qadar ta’sirchan, jonli va obrazli ediki, tinglovchi o‘zini xuddi voqeaning ichida turgandek his qilardi.

Mazkur kichik, ammo juda ibratli tajriba bir xil bilim va bir xil axborotning to‘rt xil pedagog tomonidan to‘rt xil darajada – zaifdan tortib yuksak mahoratgacha – yetkazilishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatib berdi. Demak, masala faqat nimani bilishda emas, balki uni qanday yetkazishda hamdir. Amerikalik tarbiyachi va yozuvchi Uilyam Uort bejiz ta‘kidlamagan edi: “O‘rtacha o‘qituvchi bayon qiladi, yaxshi o‘qituvchi tushuntiradi, mashhur o‘qituvchi namoyish qiladi, buyuk o‘qituvchi esa ilhomlantiradi”.

Mazkur tasnif asosida xulosa chiqaradigan bo‘lsak: agar biz ana shu uchinchi va to‘rtinchi toifadagi – ya‘ni namoyish eta oladigan va ilhomlantira oladigan o‘qituvchilarni tizimli ravishda tayyorlay olmas ekanmiz, oldimizda turgan ulkan maqsadlarni, xususan, Uchinchi Renessans g‘oyasini to‘liq amalga oshirish mushkul kechadi. Shu bois ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida pedagoglarni lingvistik kompetensiya bo‘yicha muntazam tayyorlash zarurati ortib bormoqda, zotan, ta‘lim olgan insongina ta‘lim bera oladi, tarbiya ko‘rgan insongina tarbiya bera oladi.

yetkazish san'ati uyg'unligida va ta'lim natijadorligi haqida mulohazalar)

Milliy pedagogik merosimizdagi so'z va odob uyg'unligi

So'z va nutq madaniyatiga bo'lgan e'tibor bizning milliy-ma'naviy merosimizda ham chuqur ildizlarga ega. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" va "Vaqfiya" kabi asarlarida, shuningdek, Husayn voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" risolasida so'z qadri, notiqlik odobi, o'rgatuvchining mas'uliyati haqida teran fikrlar bayon etilgan. Bu asarlarda ta'kidlanishicha, bilimli insonning qadri uning so'zlash madaniyati, muomala odobi bilan birga o'lchanadi. Ustoz-shogird munosabatlarida so'z faqat axborot vositasi emas, balki tarbiya vositasi hamdir. Demak, bugungi kunda pedagogik ritorikani rivojlantirish vazifasi yangi emas, u aslida milliy pedagogik an'analarimizning uzviy davomi, zamonaviy sharoitda qayta tiklanishi lozim bo'lgan qadriyatdir.

Sharq mutafakkirlari ta'limni ikki ustunga – ilm va odobga tayanadigan yaxlit jarayon sifatida ko'rganlar. Ular uchun bilimdon bo'lish yetarli emas edi; muallim o'z so'zi, xatti-harakati bilan namuna bo'lishi, shogirdni faqat aqlan emas, qalban ham tarbiyalashi shart edi. Bugungi kunda, axborot texnologiyalari asrida aynan shu – insoniy, jonli muloqot orqali ta'sir etish mahorati muhimroq bo'lib bormoqda. Chunki ma'lumotning o'zini internetdan, sun'iy intellekt tizimlaridan olish mumkin, lekin uni hayotiy tajriba, hissiyot va ishonch bilan yo'g'irib yetkaza oladigan jonli muloqot, jonli ustoz so'zining o'rini hech narsa bosa olmaydi.

Raqamli davr sharoitida pedagogik nutq madaniyatining yangi ahamiyati

Zamonaviy o'quvchi va talaba axborot dengizida yashamoqda: ijtimoiy tarmoqlar, video-platformalar, sun'iy intellekt tizimlari unga istalgan ma'lumotni bir necha soniyadayoq taqdim etadi. Shunday sharoitda sinfga, auditoriyaga kirayotgan pedagogning vazifasi endi faqat ma'lumot berish emas, balki o'sha ma'lumotni ma'nili, tizimli, hayotiy tajriba bilan boyitilgan holda, ishonarli va ta'sirchan tarzda yetkazishdir. Agar pedagog bu vazifani uddalay olmasa, o'quvchi e'tibori ekrandagi raqamli kontentga o'tib ketaveradi, sinfdagi jonli muloqotning qiymati yo'qoladi. Shu nuqtayi nazardan, notiqlik san'ati va kommunikativ kompetentlik endi shunchaki "foydali ko'nikma" emas, balki pedagog kasbining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. O'quvchi diqqatini tortish, unda qiziqish uyg'otish, murakkab tushunchani sodda va obrazli tilda tushuntirish, savol-javob

orqali mustaqil fikrlashga undash – bularning barchasi pedagogning nutqiy mahoratiga bevosita bog'liq. Aynan shu bois Yaponiya, Finlandiya kabi ta'lim tizimi ilg'or mamlakatlarda o'qituvchi tayyorlash dasturlarida kommunikativ ko'nikmalarga alohida o'rin ajratiladi. Bundan tashqari, raqamli davr pedagogdan yangi bir mahoratni ham talab qilmoqda – bu ham og'zaki, ham yozma nutqda, ham jonli, ham masofaviy(onlayn) shaklda bir xil darajada ta'sirchan bo'la olish qobiliyatidir. Masofaviy ta'lim jarayonida ekran orqali o'tkaziladigan dars jonli darsdan ko'ra ko'proq nutqiy aniqlik, intonatsion boylik va diqqatni jamlash mahoratini talab qiladi, chunki bu yerda pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi jismoniy aloqa yo'qoladi, uning o'rini faqat so'z va ovoz to'ldirishi kerak bo'ladi.

Tavsiyalar: muammoning tizimli yechimi sari

Bayon etilgan tahlil va amaliy kuzatuvlar asosida, ta'lim sifatini oshirish maqsadida quyidagi aniq tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- barcha ta'lim vazirliklari tizimida professor-o'qituvchilar malakasini oshirish yo'nalishida maxsus ritorik mahorat va notiqlik san'atini rivojlantirishga qaratilgan amaliy kurslar muntazam asosda tashkil etilishi lozim;

- pedagog kadrlarni tayyorlash dasturlariga "Nutq madaniyati va kommunikativ kompetentlik", "Pedagogik ritorika" kabi fanlarni majburiy tarzda kiritish va ularga amaliy soatlar ajratish zarur;

- o'qituvchilarning bilim darajasini baholashda faqat nazariy bilimni emas, balki uni o'quvchiga qanchalik samarali yetkaza olish mahoratini ham inobatga oladigan baholash mezonlari ishlab chiqilishi kerak;

- darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni jahon andozalariga moslab, zamonaviy o'quvchining dunyoqarashiga mos ravishda qayta ishlab chiqish davom ettirilishi lozim;

- maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylik va izchillik ta'minlanib, har bir bosqich keyingisini mazmunan boyitadigan tizim yaratilishi dardor;

- yuqori sinflarda kimyo, biologiya, matematika, fizika, chet tili, ona tili va adabiyot kabi fanlarni chuqurlashtirib o'qitish amaliyoti kengaytirilishi, buning uchun tayyorlanadigan pedagoglar alohida ritorik va metodik tayyorgarlikdan o'tkazilishi shart;

- har bir pedagog o'z ustida doimiy ravishda – umr bo'yi ishlashi, buning uchun zarur institutsional shart-sharoit va rag'batlantirish mexanizmlari yaratilishi lozim.

Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, qisqa muddat ichida notiq-pedagog bo'lib yetishish amrimahol, buning uchun yillar davomida izchil mehnat talab etiladi. Lekin, shunga qaramay, pedagogning o'z ustida ishlashi tizimli va uzluksiz tarzda davom etishi shart bo'lgan jarayondir.

Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati

Ko'rib chiqilgan barcha muam-molarning ildizi, aslida, pedagog kadrlar tayyorlash tizimining o'ziga borib taqaladi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar, asosan, o'z sohasining nazariy bilimlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, kommunikativ kompetentlik, nutq madaniyati va pedagogik ritorika fanlariga ajratilgan soatlar nisbatan kam. Natijada oliy ta'limni tugatgan yosh mutaxassis o'z fanini yaxshi bilsa-da, sinfga qanday turish, qanday nafas olish, ovozni qanday boshqarish, auditoriya bilan ko'z muloqotini qanday o'rnatish, diqqatni qanday tortib turish kabi amaliy ko'nikmalarni ish jarayonida, ko'pincha xatolar orqali o'rganishga majbur bo'ladi.

Bu borada xorijiy tajriba alohida e'tiborga loyiq. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda pedagog tayyorlash dasturlarining tarkibiy qismi sifatida maxsus "mikro-ta'lim"(microteaching) mashg'ulotlari o'tkaziladi: bo'lajak o'qituvchi qisqa dars namunasini video-yozuvga oladi, so'ng uni ustozlar va hamkurslari bilan birgalikda tahlil qiladi – nutq tezligi, ovoz balandligi, pauza qo'yish, ko'z muloqoti, tana tili kabi jihatlar alohida baholanadi. Respublikamizda ham pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida shunga o'xshash amaliyotni joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarni auditoriya oldida so'zlashga, o'z fikrini aniq va ta'sirchan bayon etishga o'rgatuvchi maxsus amaliy mashg'ulotlar tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, malaka oshirish institutlari va markazlarida ishlayotgan tajribali pedagoglar uchun ham muntazam ravishda "pedagogik ritorika" bo'yicha qayta tayyorlash kurslari tashkil etilishi, bunda nafaqat nazariy, balki amaliy – videotahlil, rolli o'yinlar, jamoat oldida so'zlash mashqlari kabi zamonaviy metodlardan foydalanilishi muhim ahamiyatga ega. Bunday tizimli yondashuvgina uzoq muddatli istiqbolda sifatli, yuksak malakali, o'z so'zi bilan o'quvchi qalbiga yo'l topa oladigan pedagoglar avlodini shakllantirishga xizmat qiladi.

So'z ustida ishlash – o'zlik ustida ishlash

Shuni alohida ta'kidlash joizki, pedagogning o'z ustida ishlashi, avva-



Rahimboy JUMANIYOZOV,
filologiya fanlari nomzodi,
O'ZJOKU professori,
O'zbekiston Yozuvchilar va
Jurnalistlar uyushmalari a'zosi

lo, so'z ustida ishlashdan boshlanadi. Ta'lim kaliti – nutq bilan, tarbiyaning kaliti esa – xulq bilan belgilanishini teran anglash muhim. Nutqiy va xulqiy madaniyatga ega bo'lgan insonga na komil, unday avlod esa barkamol deb atalishga haqli. Demak, chinakam notiq-o'qituvchi, avvalo, o'zi yoqimli, so'zi esa yuqumli bo'lishi lozim – u shunchaki bilimni "yetkazuvchi" emas, balki uni o'quvchi qalbidan "o'tkazuvchi" bo'lishi kerak. So'zi bilan yondiruvchi, fikri bilan qondiruvchi bo'lish nisbati aynan ana shunday pedagoglarga xos va mos libosdir.

Barcha fanlarni – tabiiy va gumanitar yo'nalishlarni birlashtiruvchi asosiy vosita aynan pedagogning kommunikativ kompetentligi, nutq madaniyati va notiqlik san'atidir. Bu esa pedagogik mahoratning asl o'zagi va o'zanini tashkil etadi. Ta'lim sifatini oshirish borasidagi barcha sa'y-harakatlar – darsliklarni yangilash, infratuzilmani mustahkamlash, texnologiyalarni joriy etish muhim bo'lsa-da, bularning barchasi, oxir-oqibat, sinf yoki auditoriyada turgan pedagogning so'zi orqali o'quvchi qalbiga yetib borishi bilan o'lchanadi. Shu bois bugungi kunning dolzarb vazifasi – nafaqat bilimdon, balki so'zga usta, nutqi burro, tafakkuri tiniq, o'z fanini va tili chuqur egallagan, o'quvchi qalbiga yo'l topa oladigan pedagoglar avlodini tarbiyalashdir. Faqat shundagina "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li" degan ulug' g'oya hayotiy voqelikka aylanadi va jamiyatimiz, xalqimiz ko'zlagan ulug'vor maqsadlar sari ishonchli qadamlar bilan ilgarilab boradi.

Yakunda shuni alohida uqtirishni istardik: ta'lim sifati – bir kunlik kampaniya yoki vaqtinchalik tashabbus emas, balki uzoq muddatli, izchil davlat va jamiyat siyosati natijasida shakllandigan ma'naviy-intellektual muhitdir. Bu muhitning markazida esa doimo inson – bilimli, so'zga chechan, o'z kasbini qalban sevgan pedagog turadi. Shu bois jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlari, avvalo, aynan ana shunday pedagoglar avlodini tarbiyalashga safarbar etilishi – kelajagimiz poydevorini mustahkamlashning eng ishonchli yo'lidir.



Munozara

*“Mana, masofalar, zo‘r yillar o‘tib,
O‘sha nur mening ham ko‘zimda qoldi.
Umrindan ham ortar yorqinlikni dil
Bilaman, faqat shu, shu nurdan oldi.
Hayotim, ishlarim, ijodimiz ul,
Otaday ilgari boshlab yuribdi.
Hozir siz o‘qigan she‘rning ham har yo‘l
Baytida o‘sha nur porlab turibdi”...*

Aziz, o‘quvchimiz, salomatmisiz? Ta‘tilingiz ma-
roqli o‘tyaptimi? Maqolamizning kirish qismida bir-
gina iltimosimni aytib olay: yuqoridagi she‘r shoira
Zulfiyaniki ekanini dalillovchi ishonchli manbani
ijtimoiy tarmoqlarimiz orqali yuborsangiz, xursand
bo‘lar edik. Mazkur she‘rni mushtariylardan biri
“Shoira Zulfiya yozgan” deya tahlil qilibdi. Tahririyat
xodimlari qancha urinmaylik, asl manbani topib, tek-
shira olmadik, muallif esa savollarimizni shunchaki
javobsiz qoldirdi.

*Tole‘yo‘qi joni g‘amdin ozod bo‘lg‘ay,
Har ishki qilsa, xotiri shod bo‘lg‘ay.*

Yana bir o‘quvchimiz ushbu misralar Boburni-
ki deya “chuqur” tahliliy maqola yuborgan, qiziqib
ketsangiz, shu g‘azalni tekshirishda ham yordami-
ngizni ayamang. Shuningdek, G‘afur G‘ulomning
ham ko‘plab shunday she‘rlari asl manbasi topil-
may, qancha “sara” maqolalar tahririyat g‘aladonida
qolib ketmadi deysiz?! Balki ko‘pchilik maqo-
lasi chop etilmagani bois gazetalaridan uzoqlashib,
“Gazet o‘ladi!” degan gaplarni aytib yuribdimikan,
bilmadik. Bilganimiz – har seshanba yangi son-
ning qisqacha sharhini intiq kutadigan, siz sodiq
mushtariylarimiz!..

Birinchi maqolam chiqishini 4 oy kutganim
esimda. Har seshanba xuddi siz kabi yangi son
sharhini o‘n martalab o‘qiyman, qani chiqa qolsa
Oxiri taqdirga tan berib, bu voqeani unutdim. Ammo
“Nega maqolam chop etilmadi?” degan savolim-
ga oradan ancha vaqt o‘tib javob topdim. Gazeta
talablari anchayin kuchli bo‘lib, men esa rosa
“o‘tlagan”, sondir-mondir jumalari gartak ko‘proq
maqola yozgan ekanman, kamiga siyqasi chiqqan
mavzuni men ham qayta chaynabman... Shukur, keyin
men ham safigizda bo‘lib, qancha maqola chop et-
tirdim!

**HAVASKOR YOZG‘ICH BO‘LADIMI,
BIROR SOHA BO‘YICHA MUTAXASSIS
YO JURNALIST – OLDINGA SILJISH
BO‘LISHI KERAK!**



*“Har bir xabarchi o‘zining gazetaga yuborg‘on
xabarini qanday yozishi va qanday tekshirishi ustida
biroz to‘xtalib o‘tamiz. Aytaylik, bir xabarchi qish-*

TAHRIRIYAT NIMA

*loqda o‘tirib tirikchilik qiladir, shuning bilan u
dehqonlarga juda yaqin. Dehqonlarning qan-
day hollar kechirmakda bo‘lg‘onliklarini
bila turib gazetaga shuni yozib yaxshilani-
shini umid qiladir. Ikkinchidan, yana qish-
loqqa borg‘on soliqchining ustidan bir deh-
qon og‘zaki “pora oladir” deb xabarchiga
dodlasa, xabarchi buni yozib olish bi-
lan shu soliqchining pora olg‘on-
ligini to‘g‘rimi, yo noto‘g‘ri
ekanligini, albatta, tekshirib
ko‘rishi va o‘zi bir narsani
ko‘rmasdan turib yozish-
dan tortinishi kerak. Xabar-
chi shuni ham bilib qo‘ysin,
shunday tekshirilmagan xom
narsalarni yozishi bilan tegishlik
idoralarning tekshirishi nati-
jasida yolg‘on va bo‘hton bo‘lib
chiqsa, albatta, yozg‘on xabar-
chi mas‘ul bo‘ladir* (Anqaboy.
Xabar, maqola, she‘r va hikoya
yozish yo‘llari. T: O‘zdatnashr,
1927. 27-bet)”. Mazkur talab XX
asr boshida jadidlar jurnalisti-
kasida mavjud edi. Umuman, gaze-
ta yaralibdiki, o‘z talablari, nashr siyosati mavjud.
Bu jarayon har bir davrda yangilanmoqda. Xususan,
bugun xabar yoki maqolani avvalgi davrlardagidek
faqat xabarchilar – jurnalistlar yozmayapti. Bugun
yuqorida o‘qiganingiz dehqon ham ko‘rgan voqea-
sini jurnalistni kutib o‘tirmay, o‘zi bayon qilmoqda –
fuqarolik jurnalistikasi anchayin odimladi. Bu jara-
yon bir tomondan jurnalistika sohasi uchun tezkor-
lik tamoyilini kuchaytirishga yordam bergan bo‘lsa,
boshqa tomondan xolislik, aniqlik, ishonchlilik, oltin
o‘rtaliqu saqlash kabi mezonlarni yo‘qqa chiqarmoq-
da. Aynan shu muammolar tahririyatlar zimmasiga
katta mas‘uliyat yuklayotir. Ya‘ni bugun tahririyat
duch kelgan maqolani chop etolmaydi. Maqola avva-
lo gazeta mezonlari darajasiga olib chiqilishi, zarur
bo‘lsa, muallifga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilishi zarur. Bi-
roq bu jarayonni hamma ham birdek to‘g‘ri qabul
qilmaydi. Aksariyat mualliflar maqolalari tahririyat-
dan qaytishini adolatsizlik deb hisoblaydi, nashr va
uning ijtimoiy tarmoqlaridan uzoqlashib, go‘yo ma-
salaga yechim topganday bo‘ladi. Xo‘sh, o‘zi gazeta
maqolani nima uchun qaytaradi? Mualliflar eng ko‘p
qanday xatolarga yo‘l qo‘yadi? Mutaxassislar bilan
fikir almashdik.

– Tahririyatga yuborilayotgan maqolalar qaytarili-
shiga eng asosiy sabablardan biri – takrorlangan
mavzu va gaplar, – deydi “Yoshlar ovozi” gazetasi
bosh muharriri o‘rinbosari Shahobiddin LUQMON.
– To‘g‘ri, mavzu takror bo‘lishi mumkin, lekin ma-
qola mazmuni, aytilayotgan gaplar ham xuddi shun-
day siyqasi chiqqan bo‘lmasligi kerak. Umuman, har
bir ijodiy ishdan originallik talab qilamiz. Boshdan
oyoq yangi topilma bo‘lishi shart emas, shunchaki
o‘sha eskilik ichida yangi yondashuv, talqin, muam-
moni ko‘rsata bilgan muallif ishlari chiqmay qol-
maydi.

Havaskor yozg‘ich bo‘ladimi, biror soha bo‘yicha
mutaxassis, yo jurnalist – oldinga siljish bo‘lishi
kerak! Hadeb bir gapni takrorlayverish hech nar-
sa bermaydi. Deylik, ekologiya bo‘yicha yozayot-
gan odam chiqindi qanday zarar keltirishi, okeanga
qancha chiqindi tashlanayotgani, plastik necha
yilda chirishi haqida yozmasdan, undan keyingi
masalalarga o‘tishi, savollarga javob izlashi, yangi
savollarni qo‘yishi kerak. Boshqa mavzularda ham
xuddi shunday. Falonchi ijodkor asarlarida vatan-
parvarlik, muhabbat va odamiylik motivlari ustun-
lik qiladi, degan gapni tag‘in aytish hech kimga

kerakmas va manfaatsiz. Ilm, jamiyat shunday
rivojlanadi.

Yana biri – SI bilan yozilgan maqolalar.
Sun‘iy intellektidan foydalanish, foydalan-
gandayam yaxshi foydalanish zarur. Lekin
g‘oyani, uslubni, yondashuvni undan olib
bo‘lmaydi. Qaysi maqolaga qarasang, bir
xil uslub, bir xil gap-jumla qurilishi...

Oxirigacha o‘qishga toqat qilolmay-
san kishi. Hatto she‘rlarni SIga
yozdirib jo‘natadiganlar bor.
Yangilikni inson yaratadi, SI
faqat bor narsani takrorlaydi,
u-bu joyini shaklan o‘zgartirib
ko‘chirib beraveradi.

Qandaydir tanlovlar uchun
maqola yuboradiganlar ham
ko‘p. Falon sanaga chiqar-
ib bering, deyishadi. Odatda
bunday maqolalarni ham qabul
qilmaymiz. Keyin pul taklif qilib
ko‘rishadi. Umuman olganda,
tanlov uchunmi yo shunchakimi,
bizga farqi yo‘q, yaxshi maqola
bo‘lsa chiqaveradi.

“Ma‘rifat” nega

Ta‘kid

*Raqamli texnologiyalar rivojlangan bugungi
davrdan bosma nashrlarning elektron shaklda omma-
ga taqdim etilishi tabiiy ehtiyojga aylanmoqda. Shu
bois “Ma‘rifat” gazetasining Telegram guruhida
ham gazetaning elektron nusxasi nega ochiq e‘lon
qilinmayotgani, nima uchun uni faqat obuna yoki
maxsus platformalar orqali o‘qish mumkinligi yu-
zasidan e‘tiroz bildirishmoqda.*

Jumladan, mushtariylardan biri shunday yozadi:

*“Gazetani yopiq muhitda qoldirish, unga faqat
anons berilishi va o‘zining to‘liq taqdim etilmasligi
bugungi kun talabiga to‘g‘ri kelmaydi. Uning o‘quv-
chilari yo‘qolib ketadi. Bugungi ochiq internet za-
monida qandaydir ilova yoki murakkab sxema orqali
kirib o‘qilishi bu aslida gazeta o‘zi uchun eshiklarni
yopishini anglatadi. Hech bo‘lmasa chop etilgach bir
hafta vaqt o‘tib uning to‘liq elektron PDF varianti
jamoatchilikka taqdim etilishi kerak. Saytda gazeta-
lar nihoyatda yillar o‘tib joylanmoqda. Bunday holat
mutlaqo tushunarsiz”.*

O‘rni kelganda mavzuni izohlab ketishni bir
o‘quvchi o‘laroq o‘z zimmasiga oldim. Avvalo, gaze-
tamizga nisbatan ko‘rsatgan e‘tiboringiz uchun katta
rahmat. Men ham uni xuddi boshqa ayrim gazetalar
singari hamma bepul o‘qishi tarafdoriman. Ammo
buning ham iqtisodiy, ham tashkiliy tomoni bor.

Tasavvur qiling: aholiga non tekin tarqatila bosh-
lansa nima bo‘ladi? Non ishlab chiqarish tizimidagi
barcha – fermerdan tortib novvoy va do‘kon sotuv-
chisigacha bankrot bo‘lib qoladi. Gazeta ham xuddi
shunday. U bepul bo‘lishi uchun muharrirdan tortib
musahhihgacha, muxbirdan tortib dizaynergacha
hamma tekin ishlashi, qog‘oz, bo‘yoq va bosmaxona
xizmatlari ham bepul bo‘lishi kerak.

Masalan, men “Ma‘rifat” gazetasining jamoat-
chi muxbiriman. Aslida gazetani bepul olishga to‘liq
haqqim bordek. Biroq sevimli gazetamni muntazam
o‘qish uchun har yili unga obuna bo‘laman. Demak,
ish haqimning ma‘lum qismini obuna uchun sarflay-
man. Chunki gazetaning yashashi ham, rivojlanishi
ham avvalo uning o‘quvchilariga bog‘liq.

Shu bois sizga ham tavsiyam oddiy: **“Ma‘rifat”
gazetasiga obuna bo‘ling.**

UCHUN MAQOLANGIZNI QAYTARADI?

APIL-TAPIL YOZADI-YU, CHOP ETTIRAMAN DEB YUGURADI...

(Nolishnoma)

Nolishnoma qilish imkoni tug'ilgan ekan, aytib olay. Aksariyosh mualliflar qayta ishlashdan, umuman, maqola yozishda hafsala, sabr bilan yondashuvdan qochadi. Apil-tapil yozadi-yu, chop ettiraman deb yuguradi. Auditoriya va mualliflarimiz asosan yoshlar bo'lgani uchun bu muammo bizga yaxshigina bilinadi. Kelajakda jurnalist bo'laman degan yosh qunt bilan qancha vaqt ketsa ham obdon pishitib yozishni o'rganishi kerak. Talabaga bemalol-ku, ishxonadagiday so'ngmuddat berilmaydi. Ayni shakllanadigan davr. Ertaga biror joyda jurnalist bo'lib ish boshlagunga qadar o'z uslubi, yozish ko'nikmalarini shakllantirib olgani yaxshi...

BEXATO, SILLIQ, KIRISH VA XULOSADAN IBORAT, O'TA HISSIZ VA QOLIPDAGI MAQOLALAR KO'PAYIB KETDI...

– Bugun oldimizdagi katta muammo – bu SI yordamida yozilayotgan maqolalar, – deydi “Ma’rifat”

bepul bo'lolmaydi?

Agar respublikamizdagi barcha ziyolilar o'z gazetalariga obuna bo'lganlarida edi, bugun “Ma’rifat”ning tiraji million nusxadan oshib, balki Ginnes rekordlar kitobidan ham joy olgan bo'lardi. Afsuski, bugun ziyolilar gazetasi hatto ziyo maskanlarining o'ziga ham to'liq kirib bora olmayapti. Ta'lim tizimidagi har bir maktab “Ma’rifat”ga obuna bo'lganida ham gazetaning adadi kamida o'n ming nusxadan oshgan bo'lardi. Holbuki, bugungi kunda u arang 5-6 ming nusxada chop etilmoqda. Yana shuncha maktabga gazeta umuman yetib bormayapti. Vaholanki, mamlakatimizda yigirma mingdan ortiq ta'lim muassasasi, millionlab ustozlar va talabalar bor. Bu ko'rsatkich shunday salohiyatga ega soha uchun juda kam. Shu ma'noda beixtiyor bir savol tug'iladi: **“Ma’rifat”siz ma’rifat maskanlari bir kun kelib o'z nuri va ruhini yo'qotib qo'ymasmikan?**

Yaqinda xizmat yuzasidan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut shahri filialida bo'ldim. Kutubxonasiga kirib, “Ma’rifat” gazetasi bormi?” deb so'radim. Ma'lum bo'lishicha, obuna bo'lishmagan ekan. Sababini aniqlab, menga qo'ng'iroq qilishlarini iltimos qilib telefon raqamimni qoldirdim. Ammo haligacha hech kim bog'langani yo'q. Keyinroq eshitishimcha, universitet filiali tugatilib, Samarqand davlat pedagogika instituti tasarrufiga o'tkazilibdi. Endi o'sha savolning javobini kimdan olishni bilmayman.

Albatta, shu o'rinda yana bir savol tug'ilishi tabiiy: nega boshqa gazetalarni internetda bepul o'qish mumkin? Buning javobi oddiy. Ularning har biri ortida muassis yoki homiy bor. Kimnidir hokimliklar, kimnidir siyosiy partiyalar, kimnidir korxona, yana boshqalarini vazirlik yoki jamoat tashkilotlari moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. “Ma’rifat” gazetasi esa eng katta muassisi ham, homiysi ham aslida biz – ziyolilarning o'zimiz. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi zimmasida ham bugunning o'zida juda katta moliyaviy yuk bor. Shu sabab gazeta qo'shimcha homiylisiz faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi sharoitda “Ma’rifat”ni muntazam o'qib borishning eng to'g'ri yo'li – unga obuna bo'lish yoki elektron nusxasini sotib olishdir. Gazetaning kelajagi ham, uning ovozi ham, eng avvalo, o'quvchilarining qo'lida.

Xudoyberdi KOMILOV,
faxriy o'qituvchi



gazetasi bosh muharriri o'rinbosari Zilola MADATOVA. – Bundan 3-4 yil avval tahririyatga keladigan maqolalarda inson hissiyotlari, fikrlari oqimi va hatto imloviy, uslubiy, fikriy, mantiqiy xatolari ko'zga tashlanardi. Bugun bu xatolarni hatto sog'inayapmiz ham. Negaki, avval tuppa-tuzuk o'zi maqola yozib keladigan ijodkor, talaba, pedagoglarning ham hozirgi kunda yozayotgan maqolalarida sun'iy intellektning nafasi ufurib turadi. Bexato, silliq, kirish va xulosadan iborat, o'ta hissiz va qolipdagi maqolalar... Muharrir buni anglamaydi, deysizmi? Sarlavhani o'qiganidanoq anglaydi. Bunday maqolalar muallifga qaytarilganida odatda “Nima kamchiligi bor?” deb so'rashadi. Kamchiligi – maqolani SI yozganida bo'ladi. Muallif SIga muammo va hatto hayotiy biror voqelikni prompt qilib bergan taqdirda ham bu maqolada muallifning o'z kechinmalari, fikrlari qalban ifoda etilmagani seziladi.

Har bir gazetaning o'z uslubi, ovozi, talabi bor

Har bir gazetaning o'z uslubi, ovozi, talabi bor. Masalan, ba'zi gazetalarda muammo ko'tarilgan maqola anonim va obyekt ko'rsatilmagan holda ham chop etilishi mumkindir. Ammo “Ma’rifat” gazetasi har bir muammoni aniq faktlar bilan olib chiqishga qat'iy riya qiladi. Maqola qanchalik ta'sirchan va mahorat bilan yozilgan bo'lmasin, bunday holatda maqola muallifga qayta ishlashga beriladi.

Yaxshi yozilgan maqolalar yana bir holatda ham qaytarilishi mumkin. Agar maqola muallifi gazetani muntazam kuzatib bormasa, unda chiqayotgan maqolalarni o'qimasa, u qalamga olgan mavzu unga qadar juda ham ko'p marta yozilgan, chuqur tahlil qilingan yoki bu fikrlar avval ham ko'p aytilganligidan bexabar qoladi. Natijada uning maqolasi dolzarbligini yo'qotadi.

Muallif matbuot nashrlarining aksariyati ixtisoslashgan ekanligini ham inobatga olgan holda, qaysi mavzu qaysi gazeta auditoriyasi uchun qiziq ekanini bilishi kerak. Masalan, “Ma’rifat” gazetasi uchun ta'lim-tarbiya, fan, adabiyot, ma'naviyat, sport kabi mavzular doim dolzarb, ammo masalan, yo'l qurilishi, iqtisod, moliya kabi mavzulardagi materiallar gazetxonlarining asosiy qismini pedagoglar tashkil etadigan nashr uchun qiziq bo'lmaydi. Muntazam gazetani mutolaa qiladigan muallif bu jihatlarni yaxshi anglagan holda ish tutadi.

QAYSI HOLATLARDA MAQOLANI QAYTA YOZISH BO'YICHA TAVSIYALAR BERILADI?

– Maqolaning qaytarilishi birgina omilga bog'liq jarayon emas. Buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin, – deydi “O'zbekiston bunyodkori” gazetasi bosh muharriri o'rinbosari Rayhona XO'JAYEVA. – Eng avvalo, maqola gazeta yo'nalishiga mos kelmasligi. Masalan, qurilish mavzusida yozilgan maqolani ta'lim yo'nalishidagi nashrga berib bo'lmaganidek, adabiyot va san'at mavzusidagi maqolani ham iqtisodiy gazeta-da chop etish amrimahol. Bu vaziyatda maqolasining mavzusidan kelib chiqib muallifga shu yo'nalishdagi gazetani tavsiya qilamiz.

Maqolaning qaytarilishiga yana ko'plab omillar sabab bo'lishi mumkin. Xususan, maqola tahririyat tomonidan qo'yilgan talablarga to'g'ri kemasligi. Sayt yoki boshqa manbalardan ko'chirib olingan ma'lumotlar, sun'iy intellekt yordamida yozilgan materiallar, imlo va stilistik xatolari haddan ortiq ko'p maqolalar ham muharrir tomonidan qaytariladi. Agar mavzu rostdan ham aktual bo'lsa, muallifga xatolari ko'rsatilib, maqolani qayta yozish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Juda umumiy mavzudagi maqolalar ham qaytariladi. Bir betlik kirishlar, mashhur shaxslar gaplaridan iqtiboslar, qaror va farmonlar bilan to'la, pichoqqa ilinadigan biror fakt, fikr yoki tahlil bo'lmasa, mavzu to'liq ochib berilmagan hisoblanadi.

Muallif ism-familiyasi to'liq yozilmagan bo'lsa, aloqa uchun telefon raqami ko'rsatilmasa, maqoladagi faktlar noaniq bo'lsa ham maqola chop etilmay, qaytariladi.



Shaxsan o'zim biror muallif maqola olib kelsa, eng avvalo, imlo xatosiga qarayman. Agar imlo xatolari juda ko'p bo'lsa, mavzusidan qat'i nazar, qaytadan yozib kelishini aytaman. Ya'ni gazeta yaxshi savodga ham o'rgatadi. Tahrirtalab maqola bu – boshqa masala. Mavzu to'liq ochib berilgan bo'lsa, yo'nalish mos kelsa, qolgan masalalar muharrir mahoratiga bog'liq.

Ha, aziz mushtariy, maqolangiz qaytarilgan bo'lsa, qalamni bir chetga surishga shoshilmang. Aksincha, muharrir bildirgan e'tirozlarni sinchiklab tahlil qiling, materialni qayta ko'rib chiqing va uni muharrir tavsiyalariga ko'ra sayqallang. Bugun qaytarilgan maqolangiz ertaga o'quvchilar tomonidan eng iliq kutib olinadigan maqolalardan biriga aylanishi mumkin. “Men aytmoqchi bo'lgan fikr o'quvchi uchun qanchalik muhim? Keltirgan faktlarim ishonchlimi? Maqolam yangi fikr bera oladimi?” kabi savollarga aniq javob topgachgina tahririyatga maqola yuborsangiz, foydadan xoli emas.

Shahnoza YANGIBOYEVA,
“Ma’rifat” muxbiri

Teran tomirlar

Sharq falsafiy merosining zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi oʻrni

Globallashev jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi sharoitida yoshlarning maʼnaviy-axloqiy dunyoqarashini mustahkamlash masalasi alohida dolzarblilik kasb etmoqda. Mazkur vazifani amalga oshirishda Sharq mutafakkirlarining boy falsafiy merosi, ularning inson kamoloti, taʼlim-tarbiya va jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlari muhim nazariy va amaliy manba boʻlib xizmat qiladi.

Sharq falsafiy tafakkuri din, axloq, falsafa va pedagogikaning oʻzaro uygʻunligi asosida shakllangan. Islom sivilizatsiyasi doirasida rivojlangan falsafiy maktablar insonni yaxlit mavjudot sifatida talqin etib, uning aqliy, maʼnaviy, axloqiy va jismoniy kamolotini oʻzaro bogʻliq holda tadqiq qilgan. Abu Nasr Forobiy oʻzining “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat va komil inson tarbiyasi masalalarini chuqur yoritib bergan. Mutafakkirning fikricha, inson kamolotining asosiy omili aql hisoblanadi: *“Aql insonning eng oliy fazilatidir, u orqali inson haqiqatni anglaydi va kamolotga erishadi”*. U, shuningdek, taʼlim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklamay, uni axloqiy fazilatlarini shakllantirish, tafakkurni rivojlantirish hamda ijtimoiy masʼuliyat hissini tarbiyalash bilan bogʻlaydi. Ilm va axloqning uzviy birligini alohida taʼkidlab, “Ilm va amal bir-biridan ajralmas. Bilimli, ammo axloqsiz inson jamiyat uchun xavfidir” deb yozadi. Ushbu gʻoyalarni bugun ham yoshlarni bilimli, maʼrifatli va masʼuliyatli shaxs sifatida tarbiyalashning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojib oʻzining “Qutadgʻu biligʻ” asarida davlat boshqaruvi, axloq va taʼlim-tarbiya masalalarini chuqur falsafiy tahlil qilgan. Asarning bosh gʻoyasi jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligi bilim, adolat hamda yuksak axloqiy fazilatlariga tayinishi zarurligidan iborat. U “Bilgʻ – kuch-qudrat, bilig bilan odam ulugʻ boʻlur” deya ilmning inson va jamiyat hayotidagi beqiyos ahamiyatini taʼkidlaydi. Uning qarashlarida taʼlim va tarbiya jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Shu bois, u “Bilimli xalq – kuchli davlat, johil xalq – zaif davlat”, degan gʻoyani ilgari suradi. Mazkur qarashlar yoshlarni ilm olishga ragʻbatlantirish, ularda vatanparvarlik, fuqarolik masʼuliyati va ijtimoiy faollik fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Saʼdiy Sheroziy “Guliston” va “Boʻston” asarlarida axloqiy tarbiya, insonparvarlik hamda ijtimoiy adolat masalalarini badiiy-falsafiy ruhda yoritgan. Mutafakkir insonlar oʻrtasidagi oʻzaro hamjihatlik va masʼuliyat gʻoyalari alohida eʼtibor qaratadi. Uning mashhur hikmatlaridan biri – “Odamlar bir-biriga aʼzolardek bogʻliq, chunki yaratilishda bir asldan. Agar bir aʼzo azob cheksa, boshqa aʼzolar ham tinchlik topmaydi”.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalardan biri sifatida zamonaviy taʼlim tizimini milliy qadriyatlar

bilan uygʻunlashtirish gʻoyasini ilgari surgan. U maʼrifatni jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida baholab, “Maʼrifat – millat taraqqiyotining asosi, maʼrifatsiz xalq – qul xalqdir” deb taʼkidlaydi. Anʼanaviy maktab taʼlimi va ilgʻor pedagogik yondashuvlarni uygʻunlashtirish zarurligini asoslab, yoshlarni milliy qadriyatlar bilan bir qatorda zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida tarbiyalash lozimligiga alohida urgʻu beradi.

Zamonaviy Oʻzbekiston yoshlari globallashuv jarayonlari taʼsirida turli madaniy oqimlar, qadriyatlar tizimi va hayot tarzlari ichida yashamoqda. “Ommaviy madaniyat”, ijtimoiy tarmoqlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi yoshlarni dunyoqarashi va qadriyatlariga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Bunday sharoitda Sharq mutafakkirlarining maʼnaviy-axloqiy merosi yoshlarning mafkuraviy va maʼnaviy immunitetini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu oʻrinda alohida taʼkidlash joizki, sharq taʼlim falsafasi jamoaviylik, axloqiy meʼyorlar, ustozga hurmat va anʼanaviy qadriyatlarga tayanadi. Gʻarb pedagogikasi esa shaxs erkinligi, tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va innovatsion yondashuvlarga koʻproq urgʻu beradi. Bugungi Oʻzbekiston taʼlim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri esa sharq va gʻarb pedagogik yondashuvlarining eng ilgʻor jihatlarini milliy qadriyatlar asosida uygʻunlashtirishdan iborat. Sharq falsafasining maʼnaviy-axloqiy tamoyillari hamda gʻarb pedagogikasining ilmiy-metodologik yutuqlari uygʻunligi zamonaviy, raqobatbardosh va maʼnaviy barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yoshlar tarbiyasida sharq mutafakkirlari merosidan samarali foydalanish uchun:

- taʼlim muassasalarida sharq falsafasi va mutafakkirlar merosiga oid mashgʻulotlarni kengaytirish;
- oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlar va hikmatlardan faol foydalanish;
- yoshlar uchun maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni mutafakkirlar merosi asosida tashkil etish;
- ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda sharq mutafakkirlari merosini keng targʻib qilish;
- taʼlim dasturlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligini taʼminlash zarur.

Dildora AHATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida
dotsenti, falsafa fanlari
boʻyicha falsafa doktori(PhD)



Doʻstlik ham meros qoladi

Doʻstlik, avvalo, bir-biriga boʻlgan ishonch, yaxshi yoki ogʻir kunida yonida kamarbasta boʻlishdan, eng asosiysi, sodiqlikdan yaraladi.

Dinimizda insonlar begonalar bilan ham yaxshi muomala qilishi, bir-biriga yordam berishi ulugʻlanadi. Paygʻambarimiz Oллоh taolo soya yoʻq kunda oʻzining Arshi soyasida soyalantiradigan yetti toifa kishilarni sanab oʻtarkan, Oллоh yoʻlida doʻst boʻlguvchi ikki birodar ham shu toifaga mansubligini aytadi.

Ikki doʻst quvonchli va musibatli kunlarda bir-biridan xabar olsa, keyinchalik farzandlari ham bir-biri bilan doʻst boʻlib, uzviy va mustahkam rishta paydo boʻladi. Doʻstlik ota-onalardan meros qoladi. Ammo hozirgi kunda haqiqiy doʻstlik kamayib ketyapti. Yoningda oʻzini senga yaqindek tutib, orqadan zarba beradiganlar ham yoʻq emas. Yana oramizda boyliging, mansabing uchun doʻstlashadiganlar ham son-sanoqsiz. Doʻst tanlashda adashmasligimiz kerak, doʻst boshga ish tushganda bilinadi.

Rivoyatlardan birida aytilishicha, bir bandaning amal daftarini taroziga tortilganda, zarra miqdordagi savob kamlik qilib, jannatga kirishiga yetmay qoladi. Shunda yaqinlaridan yordam soʻrar ekan. Najot

Muhammadsodiq TOʻRAYEV,
jurnalist

Tarbiya

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizni qanday boshqarmoqda? Ularning salbiy taʼsirini kamaytirish uchun “Milliy chin insoniy ong filtri”ni insonlar ongiga singdirish chora-tadbirlarini kuchaytirish kerak. Maktab, mahalla, oila hamkorligiga asoslangan tarbiya tamoyiliga koʻra oʻquvchilarga uch tarafлама taʼsir oʻtkazish ijobiy natija beradi.

Milliy madaniyatimizni oshiramiz

Bundan tashqari, oʻquvchilarning ota-onalari bilan koʻproq suhbatlar olib borish, ularda ham “Milliy chin insoniy ong filtri” imkoniyatlarini kengaytirish borasida uchrashuvlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Qolaversa, oʻquvchilarda ham milliy qadriyatlarimiz va ularga hurmat tuygʻularini uygʻotish, ajdodlarimizdan ibrat olish, oʻz-oʻzini nazorat qilish mezonini takomillashtirish zarur.

Bu borada maktabimizda koʻplab tadbirlar oʻtkazib kelinmoqda. Xususan, oʻquvchilar bilan haftaning har dushanba kuni oʻtkazilayotgan kelajak soati darslarida chin maʼnodaagi komil insonni tarbiyalash maqsadida olib borilayotgan davra suhbatlari koʻzlagan maqsadlarimizga yetishishimizda zamin boʻlib xizmat qilmoqda.

Oʻquvchilar oʻrtasida milliy madaniyatni oshirish uchun haftaning payshanba kuni “Biz oʻzbekimiz, biz Oʻzbekistonning kelajagi porloq yoshlarimiz!” shiori ostida milliylik soatlari oʻtkazilishi ham oʻz samarasini bermoqda. Milliylik soatlarida oʻquvchilarga millatiga munosib boʻlish kerakligi, nafaqat tashqi jihatdan, balki ichki dunyosi, fikrlari, kechinmalari bilan ajdodlarimizdek mard va jasur, oriyatli, vijdonli, halol, chin maʼnodagi haqiqiy inson boʻlishlari uchun xizmat qiluvchi barcha omillardan keng foydalanilmoqda.

Xursanoy ERGASHEVA,
Toʻraqoʻrgʻon tumanidagi
53-maktabning
boshlangʻich sinf oʻqituvchisi

Ehtirom

Umrini hikmatga toʻldirgan ustoz

Oramizda shunday insonlar borki, soʻzi sehriga, ezgu ishlari savobga, oʻzi esa mehr-shafqatga toʻla qalbi bilan butun borliqqa ezgulik ulashadi. Har bir tashlagan qadami, hayot yoʻli hikmatga aylanib, ilm nurlari ila atrofni yoritadi. Ana shunday samimiy, ochiqkoʻngil ayol Iroda Matkarimova ham koʻplab shogirdlariga ustozlik qilib kelmoqda.

Iroda Matkarimova 1967-yili Shovot tumanida ziyolilar oilasida tugʻilgan. Oʻrta maktabni tamomlab, 1985-yili Urganch davlat universitetining filologiya fakultetiga oʻqishga kirgan. 1988-yili oʻqishni muvaffaqiyatli bitirib, tumandagi 27-maktabda ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi boʻlib faoliyat boshlaydi. Qariyb qirq yildan buyon shu maktabda yosh avlodga taʼlim-tarbiya berib kelmoqda.

Iroda ustoz faol va talabchanligi bilan boshqa oʻqituvchilardan ajralib turadi. Oʻquvchilariga bor mehrini berib, kasbiy faoliyatida barchaga birdek oʻrnak boʻlib kelmoqda.

– Ota-onam oʻqituvchi boʻlgani bois pedagoglik qonimda bor. Ustoz bu – ona, ustoz – ota, ustoz – doʻst, oʻrtogʻ, oʻrni kelganda buvi ham, bobo ham boʻla oladigan mehri ummon inson! Oddiylikni yaxshi koʻraman. Agar ustozning oʻzi yuksak togʻlarga, cheksiz ummgona intilsa, u hech narsaga erisha olmaydi. Nega deysizmi? Chunki ustoz kamtarin, kamsuqum boʻlsa unga hamma intiladi. U har jihatdan haqiqiy inson boʻlishi shart. Shundagina millatni ilimli qilishdek oliy maqsadiga erishadi, – deydi Iroda Matkarimova.

Mehnatkash va samimiy ayol, mohir pedagog Iroda Matkarimova oʻquvchilar qalbidan joy egallagan. Koʻplab shogirdlari oʻzi kabi ustoz boʻlishdi. Jumladan, Jurʼat Bobojonov, Elyorbek Davlatyorov, Mehriddin Quronboyev, Gavharjon Matnazarova, Feruza Yoqubova, Bekzod Matkarimov, Yusufbek Ahmadjonov kabi shogirdlari yutuqlarga erishib, hayotda oʻz oʻrnini topgan.

Asadbek YUSUF

Mulohaza

Milliy qoʻshiq'larga gʻarb musiqasi kerakmi?

Biz musiqani dillarga zavq, orom beruvchi, kayfiyatni koʻtaruvchi vosita sifatida qabul qilishga oʻrganib qolganmiz.

Bugungi kunda beozor koʻrinayotgan baʼzi musiqa va qoʻshiq'lardan millatimiz va milliy sanʼatimizni parchalab tashlashga, yoshlarning ongini zaharlashga xizmat qilayotgan qurol sifatida foydalanilayotganini bilasizmi? Bir vaqtlar televizorda bir xonanda chiqib: “Yoningda yot-sam mojnamu, rohatlar qilsam mojnamu?” deb qoʻshiq aytgani ijtimoiy tarmoqda muhokamaga sabab boʻlgan edi. Qoʻshiqda oʻrischa soʻzlar ishlatilishi milliy tilimizga hurmatsizlik emasmi? Bu ham mayli, qiz bola ota-onasi bilan shuni koʻrsa yoki ehsitsa qanday avholga tushadi. Oʻzbekcha qoʻshiq'larga(qoʻshiq deysishga arzimaydi oʻzi) “Vabshe malades”, “Oy, krasotka” kabi soʻzlarni qoʻshib aytilish milliy tilimizni mensimaslikdir.

Xonadonimizda 2009-yili xalqimizning sevimli xonandasi Ortiq Otajonov mehmon boʻlgan edi. Men u kishiga “Nega yoshlar saviyasi past, yengil-yelpi qoʻshiq'larga qiziqadi, milliy qoʻshiq'lirimizni, mumtoz ashulalarimizni tinglamaydi?” deb savol berdim.

– Mumtoz musiqani tushunish uchun insonga aql-farosat, bilim, yuksak tafakkur kerak. Shu xislat ayrim yoshlarga yetishmayapti, – degan edi buyuk sanʼatkor.

Bugungi kunda sunʼiy intellektda yaratilgan baʼzi kuy-qoʻshiq'lardan ham milliy ohanglarni xalqimizning qalbidan chiqarib tashlash uchun qurol sifatida foydalanilyapti. Yaqinda sunʼiy intellekt yordamida yaratilgan mumtoz asarlarimizdan “Yakka bu Fargʻonada” ashulasini tingladim. Birinchidan, milliy cholgʻularning tabiiy ovozi sunʼiy intellekt chiqara olmagani. Ikkinchidan, texnikaviy qochirirlarning koʻp

Qiziltepa tumani

Poʻlat MANSUR,
nafaqadagi oʻqituvchi

Ogʻriq

Insoniyat tamadduni besh dyuymli shisha ekran ichiga qamab qoʻyildi. Biz kenglikka intilgan sari torayib, yuksaklikka talpingan sari pastlab borayotgandekmiz. Tong saharda nigohlarimizga nur emas, smartfonning sovuq va jonsiz shuʼlari sanchiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning har bir hujayrasiga kirib bordi. Ayniqsa, “vayn” deb ataluvchi qisqa videolar millionlab insonlarning nafaqat vaqtini, balki fikrlash tarzini ham tubdan oʻzgartirib yubordi. Bir qarashda beozor kulgi boʻlib koʻringan bu kontentlar ortida aslida qanday ijtimoiy manzara yashirin? Nimaning evaziga diqqatimizni virtual dunyoga qurbon qilayapmiz?

Virtual kulgi girdobi: “Vayn”lar sanʼatmi yoki vaqt kushandasi?

Axborot hech qachon hozirgidek tez-kor va arzon boʻlmagan. Ilgari badiiy asar oʻqish uchun haftalar, sifatli kino tomosha qilish uchun soatlar talab etilardi. Bugun esa bor-yoʻgʻi oʻttiz soniya ichida sizga ham kulgi, ham xulosa, ham hissiyot “taqdim etilmoqda”. Bu – “klipli fikrlash” davrining mahsuli. Odamlar uzun suhbatlardan, zalvorli maqolalardan va koʻp qismli seriallardan charchadi. Ularning oʻrnini tez hazm boʻladigan, chuqur mushohada talab qilmaydigan roliklar egalladi. Natijada mazmunsiz telenovellalardan beozor boʻlgan tomoshabin ijtimoiy tarmoqlarga yuz burdi. Biroq bu yerdagi vaziyat ham haminqadar: bir tomonda jamiyat illatlarini oʻtkir satira ostiga olgan ijodkorlar boʻlsa, ikkinchi tomonda faqat “layk” va koʻrishlar soni uchun har qanday qadriyatni oyoqosti qilishga tayyor kontentchilar toʻdasi paydo boʻldi.

Vaynlarning ijobiy jihatlarini inkor etish adolatlardan emas. Ular zamonaviy medianing eng egiluvchan shakli. Mohir vaynerlar korrupsiya, byurokratiya va oilaviy munosabatlardagi muammolarni shu qadar loʻnda ifodalamoqdaki, baʼzan bunga oʻnlab maqolalarning kuchi yetmaydi. Buni sanʼatning demokratiyalashuvi deyish mumkin. Endilikda chekka qishloqdagi oddiy yigit yoki qiz ham smartfon orqali millionlab insonlar qalbiga yoʻl topishi mumkin Ammo guruh kurnaksiz boʻlmaganidek, bu sohadagi maʼnaviy qashshoqlik kishini jiddiy tashvishga soladi.

Eng katta fojia – maʼnaviy mezonlarning yemirilishi va vaqtning “virtual botqoq”qa singib ketishidir. Koʻpchilik vaynerlar ommaviylik ketidan quvib, milliy mentalitetimizga yot bachkanalik, kattalarni masxara qilish yoki ayollar shaʼnini yerga urishni “kulgi” deb taqdim etmoqda. Bu roliklarni farzandlarimiz ota-onasi bilan bir dasturxon atrofida oʻtirib tomosha qilayotgani maʼnaviy immunitetimiz qay darajada zaiflashganidan dalolat. Biz kitob va teatr oʻrgatadigan tahliliy fikrlashdan uzoqlashib, lahzalik zavq ortidan yuguruvchi “isteʼmolchi”ga aylanib qolayapmiz.

Bu jarayonda vaqt omili eng xavfli qurolga aylanadi. Bir necha soniyalik romlar aslida soatlarimizni oʻgʻirlayotgan “maʼnaviy qaroqchi”lardir. “Yana bitta koʻray” degan aldanchi istak bilan telefoniga mixlangan yoshlar ayni ilm va hunar egallaydigan, porloq kelajak poydevorini qurajak qimmatli daqiqalarini ekranning sovuq nurlariga qurbon qilmoqda. Zero, hech qaysi millat faqat video koʻrish bilan taraqqiyotga erishmagan.

Biz texnologiyadan voz kecha olmay-

miz. Biroq vosita va maqsad oʻrtasidagi chegarani yoʻqotib qoʻyish – maʼnaviy inqirozning debochasi. Bugun mazmunan boyitilgan videoroliklar bilan bir qatorda, tomoshabinni fikr yuritishdan uzoqlashtirayotgan kontentlar ham kam emas.

Kino yoki teatr insonni mushohadaga, qahramon taqdiri bilan yashashga, hayotning murakkab jihatlarini his qilishga undaydi. Matbuot esa tafakkurni boyitadi, tahlil qilishga oʻrgatadi, soʻz boyligini oshiradi. Ayrim vaynlar esa koʻpincha bir lahzalik hissiyot bilan cheklanib qolmoqda. Eng achinarlisi, baʼzi ijod namunalari maʼnaviy mezonlardan tobora uzoqlashmoqda. Vaholanki, boy tarixga ega kino va teatr sanʼatimiz millatning haqiqiy maʼnaviy qiyofasini belgilaydi. Bu soha rivojiga umrini bagʻishlagan fidoyilarning mehnati aslo zoye ketmasligi zarur. Shu oʻrinda savol tugʻiladi: nima uchun klassik sanʼat turlari bugun biron oqsamoqda va ularning oʻrnini ijtimoiy tarmoq “ijodkorlari” egallab olmoqda? Bu savolning javobi ustida soha mutasaddilari jiddiyroq bosh qotirishlari lozim.

Aslida muammo vaynlarning oʻzida emas, balki ulardan qanday foydalanishda. Pichoq bilan ham non kesiladi, ham boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Xuddi shunday, ijtimoiy tarmoqlar ham insonni rivojlantirishi yoki, aksincha, uni tafakkur isrofiga olib borishi mumkin.

Shunday ekan, bugungi jamiyat oldida muhim vazifa turibdi: zamonaviy texnologiyalardan voz kechish emas, ulardan ongli foydalanishni oʻrganish lozim. Butun boshli ijtimoiy tarmoqni mutlaq nazorat qilish, har bir videoni filtrlardan oʻtkazish imkonsizdir. Eng samarali filtr – insonning ichki madaniyati va didi.

Vaynlar kuldirishi, kayfiyatni koʻtarishi mumkin, ammo u tafakkurimizni egallab olmasligi kerak. Kino, teat, kitob va matbuotning oʻrnini hech bir qisqa video toʻliq bosa olmaydi. Chunki haqiqiy sanʼat inson qalbidga uzoq yashaydi, vaqtinchalik kulgi esa bir necha soniyada unutiladi.

Maxsuda MIRZAYEVA,
TKTI Yangiyer filiali
Axborot resurs markazi
kutubxonachisi

Fasl tanlovi

“Faslning eng yaxshi ijodkori” tanlovining (2026-yil, yoz) nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblar bilan tanishing. “Ma’rifat” gazetasi sizning har bir ijodiy ishingizni qadrlaydi. Ijod qilishdan to‘xtamang. Mualliflarni faollikka chorlaymiz.

Yoz fasli g‘oliblari

T/r	Tanlov yo‘nalishi	Taklif etilayotgan maqola nomi (sanasi)	Muallif
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
1.	“Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola”	Prezidentimizning islohotlar strategiyasi va Yangi O‘zbekiston evolyutsiyasi (24.06.2026)	Nuriddin QOLQANOV, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori
2.	“Pedagog-muallifning dolzarb materiali”	Xonchorbog‘im (03.06.2026)	Sharifjon SAXATOV, Pastdarg‘om tumanidagi 9-maktabning tarix fani o‘qituvchisi
3.	“Eng yaxshi ocherk yoki esse”	Jumboq yoxud talabalik yillaridan bir naql (15.07.2026)	Abdunabi ABDIYEV, Mirishkor tumanidagi 22-maktab direktori
4.	“Ta’lim-tarbiyaga oid amaliy taklif”	Pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishi nega muhim? (12.08.2026)	Mashrabxon RAHMONOVA, Farg‘ona shahridagi 33-maktab o‘qituvchisi
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
5.	“Voqelikka munosib sharh yoki munosabat	“NG” – mustaqil milliy fonemamiz, unga alohida harf kerak (05.08.2026)	Baxtiyor MENGLIYEV, TAFU tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
6.	“Mazmunli intervyu, suhbat”	Maktabning jozibasi o‘quvchi bilan (29.07.2026)	Fayoza AVLAYEVA
7.	“Sermazmun sahifa”	Hokim bobo, biznikiga qachon kelasiz ?! (12.08.2026)	Humoyun QUVONDIQOV
8.	“Samarali metodik material”	Tarixni jonlantiruvchi darslar (03.06.2026)	Fazliddin ABDURAIMOV, Termiz shahridagi Prezident maktabi tarix fani o‘qituvchisi
9.	“O‘qishli badiiy asar”	Sojida (05.08.2026)	Husan ISPANTOV, O‘zMU talabasi, Piskent tumanidagi 14-maktabning matematika fani o‘qituvchisi
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
10.	“Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material”	Ustama ustida o‘ylar (15.07.2026)	Salomat ESHIMBETOVA, Beruniy tumanidagi 47-maktabning ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
11.	“Eng yaxshi tarjima materiali”	Kuchukcha va uch dollar pul (Mark Tven) (15.07.2026)	Qandilat YUSUPOVA tarjimasi
12.	“Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi”	Va nihoyat siyladi Xoliq! Ernest Xemingueyga maktub (17.06.2026)	Nizomiddin MADRAHIMOV, O‘zJOKU talabasi
13.	“Jozibali fotolavha yoki surat”	Bulutlar bag‘ridagi ulug‘vorlik (29.07.2026)	Muhammadbobur MAHMARAYIMOV olgan suratlar

Istiqlol bergan imkoniyatlar

Bugun Yangi O‘zbekiston haqida gapirar ekanmiz, faqat bunyod etilayotgan zamonaviy binolar, yangi yo‘llar, ishlab chiqarish korxonalari yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan izohlab bo‘lmaydi. Yangi O‘zbekiston, eng avvalo, hayotimizda farovonlik orqali o‘z aksini topayotgani bilan ham qadrlidir.

Fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilish imkoniyatlari kengaydi. Tadbirkorlik qilish, kasb o‘rganish, ta’lim olish, zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanish, ijtimoiy ko‘mak olish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Mahallaning jamiyat hayotidagi o‘rni kuchaydi. Yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ehtiyojmand oilalarga yordam ko‘rsatish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini ta’minlash masalalariga yangicha yondashuv shakllandi.

YANGI O‘ZBEKISTON: inson qadri, islohot va farovon hayot tamoyili

Jamiyatdagi katta o‘zgarishlarni kuzatar ekanmiz, ularning zamirida inson qadrini ulug‘lashdek ulkan g‘oya borligini ko‘ramiz. Bugun qishloq va mahallalarda yangi maktablar, maktabgacha ta’lim muassasalari, tibbiyot maskanlari, sport inshootlari qad rostlamoqda. Shaharlar obod bo‘lib, yo‘l va transport infratuzilmasi yangilanmoqda. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmoqda, tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar alohida o‘rin tutadi. Chunki ta’limga berilgan e‘tibor natijasi har qadamda namoyon bo‘lmoqda. Bugun maktabga qadam qo‘ygan bola ertaga mutaxassis, olim, shifokor, muhandis, o‘qituvchi, tadbirkor yoki davlat xizmatchisi bo‘lib mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Bugungi yosh avlodning dunyoqarashi ham o‘zgarib bormoqda. Ular nafaqat bilim olish, balki yangi g‘oya yaratish, zamonaviy kasb egallash va dunyo miqyosida raqobatlashishga intilmoqda.

Ijtimoiy sohalarida ham sezilarli natijalar qayd etilmoqda. 2020-yili mamlakatimizda 7,5 million nafar yoki aholining 23 foizi kambag‘allik chegarasidan past daromadga ega bo‘lgan bo‘lsa, amalga oshirilgan istiqbolli chora-tadbirlar natijasida 2023-yil yakunida kambag‘allik darajasi 11 foizgacha kamaytirildi. 2025-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich 6,6 foizga yetdi.

Ijtimoiy himoya tizimida qamrov yanada oshdi. 2023-yili ijtimoiy himoyaga 12,3 trillion so‘m yo‘naltirildi, ijtimoiy himoya qamrovi esa avvalgi davrga nisbatan 4,5 baravar ko‘tarildi. Pensiya va nafaqalar miqdori har yili bosqichma-bosqich oshirilmoqda.

Iqtisodiyotda ham yangi marralar zabt etilmoqda. 2025-yil yakunlariga kelib O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi 130 milliard dollardan oshgani qayd qilindi.

Albatta, oldimizda hali ko‘plab vazifalar turibdi. Ammo bugungi kunimizga xolis nazar tashlasak, mamlakatimiz hayotida tub o‘zgarishlar yuz berganini inkor etib bo‘lmaydi. Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan bugungi hayotimiz haqida o‘ylar ekanman, qalbimda, avvalo, shukronalik tuyg‘usi uyg‘onadi. Bugun biz ko‘rayotgan yangi maktablar, ta’limdagi imkoniyatlar, ijtimoiy himoya tizimidagi yangilanishlar, yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, mahallalardagi bunyodkorlik ishlari – bularning barchasi mustaqillik bergan imkoniyatlardan samarali foydalanish yo‘lidagi sa’y-harakatlar natijasidir.

Biz pedagoglar esa bu jarayonda o‘zimizga yuklatilgan mas’uliyatni chuqur his qilamiz. Chunki bugun ta’lim berayotgan farzandlarimiz ertangi O‘zbekistonni bunyod etadigan kelajak bunyodkorlari hisoblanadi. Zero, mustaqillikning haqiqiy qadri ham shunda. Inson o‘z kelajagini erkin qurishi, farzandining ertangi kuniga ishonch bilan qarashi va Vatan taraqqiyotida o‘zining munosib o‘rni borligini his etishi lozim.

Gulira’no AZIMOVA, Yunusobod tumanidagi 87-alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab direktori, Xalq ta’limi a’lochisi, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi, Xalq deputatlari Yunusobod tumani kengashi deputati



Yurtimizda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ilm-fanga qiziqishini oshirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ta'limga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yorqin ifodasidir.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Jizzax filiali ham qisqa fursatda salmoqli natijalarga erishib kelmoqda. Ayni paytda maktabda yosh, iqtidorli, tashabbuskor va o'z kasbiga fidoyi ustozlardan tashkil topgan 49 nafar pedagog xodim faoliyat yuritmoqda. Jamoani yosh bo'lishiga qaramay, fidoyi, oliy toifali, Xalq ta'limi a'lochisi Dilmurod Karimqulov mohirona boshqarib kelmoqda.



Muhayyo KARIMOVA,
Nilufar SIROJIDDINOVA,
Abu Ali ibn Sino nomidagi
ixtisoslashtirilgan maktabning Jizzax filiali pedagog-tarbiyachilari

Maktabda tabiiy fanlarga qiziquvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Malakali ustozlar o'quvchilarga dars vaqti puxta bilim berib, darsdan so'ng tashkil etiladigan fan to'garaklarida fan sir-asrorlarini chuqur o'rgatishmoqda. Natijada o'quvchilar turli tanlov va fan olimpiadalarida munosib ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallashmoqda.

sertifikatlarini qo'lga kiritdi. Bu esa o'qituvchilar tajribasi va o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishi o'z samarasini berayotganini ko'rsatadi. 230 nafar o'quvchining 198 nafari turli fan yo'nalishlarida sertifikat olishga muvaffaq bo'ldi. O'quvchilarimiz CHSB nazorat tahlillari natijalariga ko'ra, viloyat miqyosida 2-o'rinni egalladi.

Shu bilan bir qatorda, maktabda faoliyat yuritayotgan 17 nafar pedagog-tarbiyachi darsdan so'ng o'quvchilarning

Bu yil 20 nafar maktab bitiruvchisining barchasi xalqaro va respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilinib, 100 foizlik natijani qo'lga kiritdik. Bundan tashqari, ingliz tili o'qituvchilari tajriba tariqasida 6-sinf o'quvchilari bilan birgalikda ingliz tili sertifikatini olish uchun imtihon topshirdi. 18 nafar o'quvchi

Maktabim – faxrim

Ta'lim muassasalarida



bo'sh vaqlarini mazmunli tashkil etish, dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etib kelishmoqda. Ta'kidlash joizki, 2024-2025-o'quv yilida Prezident, ijod, sport, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining "Turon" o'quvchilar teatr jamoalari o'rtasida o'tkazilgan tanlovda jamoamiz viloyat miqyosida 1-o'rinni egallab, respublikada "Eng yaxshi sahna dekoratsiyasi" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. O'tgan o'quv yili esa viloyat miqyosida faxrli 2-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, o'quvchilarimiz

"Turon yo'lbarlari" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida faol ishtirok etishdi. Erishayotgan yutuqlarimizni sanasak har bir natija ortida ustozlarning mashaqqatli mehnati, o'quvchilarning tinimsiz izlanishi, ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi va butun jamoaning birdamligi mujassam.

Bugungi yutuqlarimiz yanada yuksak marralar sari intilish uchun kuch va ilhom bag'ishlaydi. Buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino nomi bilan atalgan ushbu ta'lim maskanida kelajak avlodni buyuk ajdodimizga munosib insonlar etib tarbiyalashdek sharaflı vazifani sidqidildan bajarishga intilamiz.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga

HAR BIR BOLA – O'ZBEKISTON BUNYODKORI

O'zbekiston mustaqilligining 35 yilligi arafasida ortga nazar tashlarkanmiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik va islohotlarning markazida inson, uning farovonligi, ayniqsa, yosh avlod taqdiri turganiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Bugun yurtimizda "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan ezgu g'oya tobora chuqur mazmun kasb etmoqda. Chunki yangi O'zbekistonning eng katta boyligi – bilimli, sog'lom fikrlaydigan, ma'naviy barkamol va zamonaviy kompetensiyalarga ega avloddir. Bunday avlodni tarbiyalash esa, avvalo, maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Buning natijasini raqamlar ham yaqqol ko'rsatmoqda. 2017-yili O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni qariyb 5,2 mingta bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 39,2 mingtaga yetgan. Ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 7,5 baravar oshgan. 2017-yili bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi atigi 27 foiz bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich 77-78 foiz darajasiga ko'tarildi. Bu raqamlar ortida minglab yangi binolar, zamonaviy o'quv jihozlari, yangi ish o'rinlari va eng muhimi, ta'lim-tarbiya olish imkoniyatiga ega bo'layotgan millionlab bolalar taqdiri mujassam. 2025-yilning birinchi yarmida mamlakatimizdagi 38 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim tashkilotida 4,4 million nafardan ziyod bola ta'lim-tarbiya olgani, umumiy qamrov darajasi 77 foiz, olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlov bilan qamrab olish esa 96 foizga yetgani qayd etilgan. Shu davrda 54 ta yangi bog'cha qurilib, 6 820 ta qo'shimcha o'rin yaratilgan. Davlat-xususiy sheriklik asosida 51 ta, oilaviy nodavlat sektor hisobidan esa 505 ta yangi muassasa tashkil etilib, jami 26 331 nafar bola uchun qo'shimcha o'rin yaratilgan.

Bu – davlat va jamiyat birgalikda bola manfaatini ustuvor qo'yayotganining amaliy ifodasidir. Bugungi tizim faqat davlat bog'chalari bilan cheklanib qolmayapti. Davlat, xususiy sektor, davlat-xususiy sheriklik va oilaviy nodavlat bog'chalar o'rtasidagi sog'lom raqobat ta'lim xizmatlari ko'lamini kengaytirmoqda. So'nggi yillarda tashkil etilgan 38 mingdan ortiq maktabgacha ta'lim tash-

kilotining qariyb 7 ming nafari davlat, 31 mingdan ortig'i esa nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelishi ham bu jarayonning ko'lamini ko'rsatadi.

Shu jihatdan qaraganda, davlat-xususiy sheriklik modeli nafaqat yangi bog'chalar tashkil etish, balki ota-onalarga tanlov imkoniyatini kengaytirish, ta'lim xizmati sifatini oshirish va hududlarda yangi ish o'rinlari yaratishning samarali mexanizmiga aylanmoqda. Namangan davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasining faoliyati ham zamonaviy talablar asosida takomillashib bormoqda.

Kafedramizning asosiy maqsadi nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy ko'nikma, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan, bolalar psixologiyasini chuqur anglaydigan, yangilikka intiluvchan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bugun institutda ta'lim jarayonini amaliyot bilan bog'lash, talabalarni real pedagogik muhitga olib kirish, ularning ilmiy-tadqiqotchilik va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida ta'limni xalqaro tajribadan ajratib tasavvur qilib bo'lmaydi. Namangan davlat pedagogika institutida xalqaro aloqalarni rivojlantirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirish, professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun akademik almashinuv va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Institutning xalqaro hamkorlik faoliyatida qo'shma ilmiy loyihalar, tajriba almashish, xalqaro konferensiyalar va xorijda malaka oshirish kabi yo'nalishlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Yaponiya ta'lim tajribasi biz uchun alohida qiziqish uyg'otadi. 2026-yili Namangan viloyatidagi 17 ta umumta'lim maktabida Yaponiya tajribasi sinov tariqasida joriy etilib, 95 ta sinfni qamrab oldi. Unda intizom, mas'uliyat, mustaqillik, jamoaviylik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berilmoqda.

Maktabgacha ta'limda ham bunday yondashuvlardan samarali foydalanish mumkin. Masalan, yapon tajribasidagi mustaqillik, tartib, jamoaviy mas'uliyat, o'z-o'ziga xizmat qilish, tabiatga ehtiyotkor munosabat kabi qadriyatlar maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida juda muhim. Biroq xorij tajribasini ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki uni milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimiz va ta'lim

an'analrimiz bilan uyg'unlashtirish muhim. Masalan, Yaponiyada bolaning mustaqilligiga e'tibor berilsa, biz bu tajribani milliy tarbiya an'analrimiz – kattaga hurmat, kichikka izzat, mehr-oqibat, jamoaviylik va oilaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishimiz mumkin.

Bugun ta'limning turli bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash eng muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va oliy ta'lim muassasasi bir-biridan uzilib qolgan tizimlar emas, balki yagona ta'lim zanjirining bo'g'inlaridir. Shu ma'noda Namangan davlat pedagogika instituti va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Talabalarni pedagogik amaliyotga yo'naltirish, maktab va bog'chalardagi real jarayonlarni o'rganish, ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil qilish orqali nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanmoqda.

2026-2027-o'quv yilidan pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishida bakalavrlarni dual ta'lim shakli – 1+5 modeli asosida tayyorlash belgilanganining o'zi ham nazariya va amaliyotni yanada yaqinlashtirishga qaratilgan muhim qadamdir. Demak, bugungi pedagogika ta'limining asosiy mezon – auditoriyada olingan bilimning amaliyotda qanchalik samarali qo'llanayotganidir.

Bugun bolalar zamonaviy bog'chalarga bormoqda, kichik yoshdanoq sifatli ta'lim olmoqda, texnologiyalardan foydalanishni o'rganib, sport va san'at bilan shug'ullanmoqda. Iqtidorli bolalar uchun esa maxsus dasturlar, innovatsion markazlar va rivojlantiruvchi muhitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda 2026–2028-yillarda har bir hududda "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkilotlari va Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlarini tashkil etish rejalashtirilayotgani ham sohaning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishini ko'rsatadi.

Ammo imkoniyatning o'zi yetarli emas. Uni natijaga aylantiradigan kuch – fidoyi pedagogdir. Shuning uchun bizning oldimizda juda katta mas'uliyat turibdi. Har bir tarbiyalanuvchining qalbiga ezgulik urug'ini qadash, uning qobiliyatini ko'ra bilish, mustaqil fikrlashiga sharoit yaratish, Vatanga muhabbat va insoniylik tuyg'ularini singdirish – bizning sharaflı burchimizdir.

Munojat ASRANBOYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrası mudiri, professor

Siyosiy sharh

QO'SHALOQ SAYLOVLAR

Tarixdan yaxshi ma'lumki, dunyodagi yirik mamlakatlarda sodir bo'ladigan ahamiyatli ichki voqealar butunjahon siyosiy iqlimiga katta ta'sir o'tkazadi. Bunga ko'plab misol keltirish mumkin. Shu yil kuz oylarida AQSH va Rossiya-da bo'lib o'tilishi kutilayotgan parlament saylovlari ham bundan mustasno emas. Aniq ishonch bilan aytish mumkinki, 20-sentabrda Rossiyada o'tkaziladigan saylovlarning natijasi allaqachon hal bo'lgan ko'rinadi. Katta yoshdagi gazet-xonlarimiz yodida bo'lsa sho'ro davrida saylovlar nisbiy tushuncha bo'lib, xo'jamko'rsinga o'tkazilar edi. Tepadan tayinlangan nomzodlarga saylovchilar shunchaki ovoz bergan bo'lib qo'ya qolishardi. Ushbu an'ana sobiq ittifoqning ayrim respublikalarida hozirgacha davom etib kelmoqda. Rossiyada Gorbachyov va Yelsinning rahbarlik davrida saylovlar birmuncha erkinlashgandi, biroq konservativ o'ng firqalarning sa'y-harakati bilan eski arava yana o'zining avvalgi iziga tushirildi. Masalan, yaqinda Rossiya davlat Dumasiga o'tkaziladigan saylovlarda mamlakatdagi yagona muxolifatchi liberal-demokratik "Yabloko" partiyasi nomzodlari ro'yxatga olinmaydigan bo'ldi. Sababi: ular xorijdan no-qonuniy moliyalashtirilgan emish. Darhaqiqat, firqaning ko'pgina faol a'zolari hozir muxolifatda bo'lib, a'zolik badallarini xorijdan turib jo'natgan bo'lishlari mumkin. Ammo, bizning nazarimizda, "Yabloko" a'zolarining cheklab qo'yilishiga asosiy sabab bu emas. Ma'lumki, ushbu partiya boshidanoq rus-ukrain urushiga qarshi turib kelmoqda. Shu kunlarda ham ular Putinni harbiy harakatlarni to'xtatib, sulh tuzishga da'vat etishmoqda. Biroq ularning ezgu harakatlari g'alaba ishqida yonayotgan urush tarafdorlari va shaxsan Putinga mutlaqo yoqmayapti. Nega desangiz, urushni to'xtatish hozir rus imperialistlari uchun aniq mag'lubiyat bo'lib tuyulmoqda. Ular urushni oxirgi mantiqiy yakunigacha davom ettirishga qat'iy bel bog'lagan. Kreml nazarida Donetsk viloyati batamom zabt etilsa, ana o'shanda sulh haqida gapirish mumkin. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, rus ma'murlari hali to'liq zabt etilmagan Zaporozhye va Nikolayev viloyatlariniyam Rossiya Konstitutsiyasiga kiritib qo'yishibdi. Demak, bo'lg'usi muzokaralarda ana shu hududlar masalasi ham kun tartibida bo'lishi aniq. Holbuki, Ukraina tomoni bu shartlarga mutlaqo ko'nmaydi. Putin Tramp bilan bo'lgan yaqin munosabatlariga tayanib, ukrainlarni bosqinchilik shartlariga ko'ndirishga urinib ko'rishi mumkin, biroq Eronda popugi pasayib qolgan Tramp uchun bu ikkinchi bir sharmandalik bo'lar edi. Bu esa kutilayotgan Kongressning vakillar palatasiga bo'lg'usi saylovda pespublikachilar partiyasining aniq mag'lubiyati demakdir. Garchand, Rossiyada yablokochilarni safdan chiqarish orqali saylov taqdiri hal qilingan esa-da, amerikaliklarda tartib sal o'zgacha. Tramp Amerikada demokratiyani yo'q qilishga qanchalik urinmasin, u yerda liberal ozodlik taomillari shunchalik chuqur ildiz otganki, uni yo'qotishga hatto prezidentning ham kuchi yetmaydi. Chunki AQSH ma'naviy krepostnoy qullarning emas, ozod fuqarolarning mamlakati hisoblanadi. Kelgusida tartib balki o'zgarishi

mumkin, ammo hozircha shunday. Biroq bu endi abadiy shunday bo'lib qoladi degani emas.

OGOHLIKKA DA'VAT

1787-yili Filadelfiya shahrida AQSH bosh qomusi tasdiqlanib qabul qilindi. Konstitutsion konvensiya o'z ishini yakunlab, AQSH asoschilaridan biri Benjamin Franklin majlislar zalidan chiqayotgan chog'ida shu shaharda yashovchi fuqaro – Elizabet Pauell degan ayol Franklinga savol beradi:

– Doktor, bizda respublika bo'ladimi yoki monarxiya?

Franklin unga shu zahotiyoyq javob beradi:

– Respublika! Agar siz uni saqlay ol-sangiz!

Uning ushbu javobidan ko'rinib turibdiki, ozodlik juda mo'rt tushuncha. Qomusni, qonunlarni, har xil to'g'ri qoidalarni qabul qilish hali bu faqatgina boshlanishi, xolos. Uning ayolga "siz" deb murojaat qilishida ham chuqur ma'no bor. Respublika tuzumi vaziyat abadiy shunday bo'lib qolishiga kafolat bermaydi. Uning saqlab qolinishi xalqdan faollik va donolikni talab qiladi. Shu ma'noda Rossiya Federatsiyasi saylov tizimidan "Yabloko" partiyasining chiqarib tashlanishi mamlakatda respublika boshqaruvining nihoyasiga yetganligi va davlat batamom avtokratlar qo'liga o'tganini anglatadi. Aslida bu jarayon hali Putin hokimiyat tepasiga kelmasidan ancha ilgari boshlangandi. 1996-yilda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovida kompartiya rahbari Zyuganovning qo'li baland kelishini sezgan oligarxlar turli vositalarni ishga soldi, davlat rahbari Yelsin ham qayta saylanish uchun sho'ro davrida sinovdan o'tgan ma'muriy dastaklardan foydalandi va oqibat soxta bo'lsa-da yutib chiqdi. Ba'zilar nega u hokimiyatni o'z ixtiyori bilan Putinga topshirdi, deya ajablanadi. Sababi yana o'sha: qayta saylanishidan umidi so'nib, hafsalasi pir bo'lgan edi. Aksincha bo'lganida, har yo'l bilan hokimiyatni saqlab qolishi mumkin edi. Hokimiyat tepasiga Vladimir Putin kelgach, qadam-baqadam demokratik institutlar ildizini qurita boshladi. Dastlab liberal OAVlar yo'q qilindi. 2022-yilda arang jon saqlab turgan oxirgi erkin radioovozi "Эхо Москвы" ham o'chirildi. 2026-yilga kelib internet, telegram va boshqa shu singari ijtimoiy tarmoqlarning faoliyati cheklandi. Va nihoyat, demokratiyaning so'nggi umidi, yagona demokratik partiya saylovdan chetlatildi. Sababi: shu paytgacha bu firqa marginal guruh hisoblanib, demokratiyadan hafsalasi pir bo'lgan rossiyaliklar unga deyarli e'tibor berishmas, saylovlarda ham uning nomzodlari arzimagan ovoz to'plar edi. Urush avj olib, eshiklaridan mo'ralagan rossiyaliklar birdan shunday partiya borligini eslab qolishdi. Ana shu joyda Benyamin Franklinning aytgan fikri tamoman isbotlandi. Agar rossiyaliklar avvalboshdan demokratik partiyalarni qo'llaganlarida edi vaziyat tamoman boshqacha bo'lardi. Balki bugungi la'nati urush ham boshlanmasdi deb o'ylayman. Ular gaz va neftdan kelayotgan mo'may dollarlarga, Qirimning jangsiz egallani-

shiga aldanib qolishdi. Mana, ana endi millatchi populistik partiyalar chuqur ildiz otib, quyushqondan chiqib xalq boshiga behisob qayg'u va kulfatlar keltira boshlagach, Rossiya fuqarolarining ko'zi ochila bormoqda. Biroq endi kech, imperialistik millatchi kuchlarga tinch yo'l bilan bas kelib bo'lmaydi. Rossiyaga endi yana yangi islohotchilar, inqilobchilar kerak. Afsuski, ularni qaytadan ataylab yetishtirib bo'lmaydi. Endilikda Kreml halokatli tanlov ostonasida turibdi. Yo xitoylik katta og'aning yo'rig'iga yurib, urushni to'xtatish, yoki xalqaro maydonda mutlaqo yakkalanib qolishiga to'g'ri keladi. Chunki BMT Bosh assambleyasining yaqinda bo'lib o'tgan yalpi majlisida Xitoy Xalq Respublikasi vakili Ukrainaning hududiy yaxlitligini himoya qilib, Moskvadan harbiy harakatlarni to'xtatishni talab qildi. Bu xuddi Putinning boshiga bir chelak sovuq suv ag'dargandek bo'ldi. Rossiyalik urush tarafdorlari esa Putindan urushni davom ettirishni, kerak bo'lsa, yadro qurolini ishga solishni talab qilishmoqda. Chorasiz Putin ikki o't orasida, boshi berk ko'chaga kirib qolgan odamdek bo'lib qoldi. Ushbu hangomalardan o'zini bir chetga olib kuzatuvchi bo'lib turgan Xitoy eng manfaatdor tomon bo'lib chiqmoqda. Negaki, mabodo urushda Rossiyaning qo'li baland kelib Amerika va Yevropani zaiflashtirsa, "osmonosti mamlakati" biryo'la ikkita raqobatchisidan qutuladi. Agar Yevropa va Amerikaga suyanib urushayotgan Ukraina g'olib chiqsa, Rossiya Xitoyning chinakam xomashyo omboriga aylanadi. Har ikki holatda ham urush Xitoy foydasiga yakunlanadi. Biroq uning achchiq ichakdek cho'zilib ketishidan hech kim manfaatdor emas, hatto urushni boshlagan Moskva ham. Rossiyada Putinning obro'si keskin tushib ketayotganligi ko'rinib turibdi. Hozir xalqning uchdan ikki qismi urushga qarshi chiqmoqda. Yavlinskiy partiyasining saylovdan chetlashtirilishi bosh sababi ham shunga borib taqaladi. Kelajakda davlat Dumasida tinchlikparvar deputatlarning paydo bo'lishi rus siyosiy-iqtisodiy elitasini cho'chitib qo'yimoqda. Siyosatchilar xalq nazdida bebud bo'lishdan qo'rqayotgan bo'lsalar, oligarx-biznesmenlar davlat tomonidan berilayotgan mo'may harbiy buyurtmalardan mahrum bo'lishni istamayaptilar.

ARES BANDALARI

Yaqinda 2007-yilda bo'lib o'tgan tarixiy Myunxen sammiti va undan keyin o'tkazilgan matbuot anjumani materiallari bilan qayta tanishib chiqdim. Matbuot konferensiyasida jurnalistlardan biri Putinga quyidagi savolni berdi:

– Janob prezident, siz bir qutbli dunyoga qarshi chiqib, uning ko'p qutbli bo'lishini istayapsiz, unda nega mamlakatingizdagi siyosiy partiyalar bir qutbli?

Putin bunga javoban, Rossiyadagi siyosiy firqalar bir xil emasligi, masalan, kommunistlar bilan liberallar bir-biridan katta farq qilishi haqida batafsil gapirib berdi. Ammo, keyinchalik vaqt shini ko'rsatib berdiki, tizimdagi firqalar tashqi rang-barangligiga qaramay mohiyatan bir xil ekan. Bugun ularning barchasi



Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi

"Yabloko" partiyasiga qarshi umumiy front atrofida birlashdi. Shu o'rinda bu partiya haqida qisqacha ma'lumot berib o'tishga to'g'ri keladi. Uning yabloko(olma) deb atalishiga bu mevaning hech qanaqa aloqasi yo'q. O'tgan asrning 80-yillari oxirida siyosiy maydonga chiqqan bu firqaning asoschisi Grigoriy Yavlinskiy 1952-yilda Ukrainaning Lvov shahrida tug'ilgan. Otasi rus millatiga mansub, onasi esa ukrainalik yahudiylardan bo'lib, Yavlinskiy o'zini rus millatiga mansub deb hisoblaydi. O'sha davrda partiyaning nomi "Yavlinskiy bloki" deya nomlanib, keyinchalik qisqartirilib, "Yabloko" nomi bilan mashhur bo'lib ketdi. Yablokochilar liberal-demokratik ko'zqarashdagi fuqarolar va ziyolilardan iborat bo'lib, mamlakatda g'arb andozasidagi demokratik tuzim o'rnatilishi tarafdorlaridirlar. Shu paytgacha ularning Rossiya siyosiy hayotidagi o'rni unchalik katta bo'lmay, keyingi paytlarda o'bro'si keskin ko'tarilib bormoqda. Buning asosiy sababi: partiya urushga qarshi tashviqot olib borib, tobora xalq moyilligiga sazovor bo'lmoqda. Agar oldi olinmasa, erta davlat Dumasiga bo'lajak saylovda demokratlarning ko'pchilik ovoz olib qo'yish ehtimoli rasmiylarni chinakamiga cho'chitib qo'ydi va ular "Yabloko"ga qarshi jiddiy oyoqqa turdilar. Sababi, yuqorida yozganimizdek, rus elitasi orasida urushning davom etishini astoydil istaydigan odamlar behisob. Chunki ularning boshida urush xudosi-ning bandasi Vladimir Putin turibdi. Qadimiy yunon mifologiyasida shafqatsiz va qonxo'r Ares(qadimiy Rimda Mars) timsoli bor. U o'n ikki olimp xudolaridan biri bo'lib, Zevs va Geraning o'g'li deyiladi. U oqil va donishmand Afinadan farq qilib, o'ta badjahlligi va beshafqatligi bilan dong taratgan. Ares jang shiddatini, yaradorlarning oh-nolasini va qotillik zavqini juda yoqtirgan. Shu bois uni hatto o'z otasi Zevs ham yomon ko'rgan. Aresning ikki yonida Fobos(Qo'rquv) va Deymos(Dahshat) ismli o'g'illari bo'lgan. Ularga Erida(Adovat) nomli singillari madad berib turgan. Shubhasiz, bizning zamonamizda ham Aresning ojiz bandalari uchrab turadi. Ulardan biri Ukrainada, ikkinchisi Eronda katta janjal chiqarib, ana endi bu qonli urushlarni to'xtatolmay boshi garang. Davom ettiray desa, kundan kunga tinka-madori qurib bormoqda. To'xtatay desa, xudosisiga shak keltirgan bo'ladi. Afsonaviy rivoyatlar o'z yo'lida-yu, hozir Trampning ham, Putinning ham holatiga havas qilib bo'lmaydi. Ular o'zi qo'ygan tuzoqqa tushib qoldi. Undan bosh chiqarishning sira iloji yo'q, tuzoq sirtmog'i tobora qisib bormoqda. Buning sabablari haqida, nasib qilsa, kelgusi maqolalarimizdan birida to'xtalib o'tamiz.

Jarayon

ILMIY YONDASHUV: JINOYATCHILIKNI JILOVLASH YO‘LIDAGI MUHIM QADAM

Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini ilmiy asosda takomillashtirish, kriminologik tahlillarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish hamda ilg‘or xalqaro tajribani milliy amaliyotga joriy etish yo‘nalishida O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda.



Ushbu yo‘nalishda joriy yilning birinchi yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar yurtimizdagi nufuzli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya kengashining navbatdagi yig‘ilishida muhokama qilinib, erishilgan natija va kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Institutda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tizimli tashkil etish va uning amaliy samaradorligini ta‘minlash maqsadida 34 nafar a‘zodan iborat mazkur Kengash tarkibiga vazirlik va idoralarning ekspertlari, olimlar, huquq-tartibot hamda ilmiy-ta‘lim muassasalari rahbarlari kiritilgan. Bugungi kungacha respublikada jinoyatchilikni ilmiy tadqiq etish bo‘yicha 30 ga yaqin muhim masalalar muhokama qilinib, amaliyotga joriy etish uchun yuborildi.

Mazkur muassasa tomonidan shu yilning birinchi yarmida 11 ta tadqiqot hisoboti, 9 ta uslubiy qo‘llanma, 7 ta monografiya, 7 ta tahlilnoma, 3 ta konferensiya to‘plami, 2 ta davlat hisoboti hamda 1 ta darslik muhokama qilinib, ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi. Institut tashkil etilganidan beri ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 20 ta tadqiqot hisoboti, 30 ta uslubiy qo‘llanma, 11 ta monografiya, 7 ta tahlilnoma, 8 ta konferensiya to‘plami, 7 ta davlat hisoboti va 1 ta darslikni tashkil etadi.

Jinoyatchilik holatini muntazam tahlil qilish va uning kelgusi tendensiyalarini prognozlash maqsadida har chorakda “Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari” tayyorlanib, Hukumat va huquq-tartibot organlariga yuboriladi. Ular bo‘yicha 44 ta taklif, 15 ta tasnif, 30 ta ta‘rif va 10 ta ilmiy prognoz ishlab chiqildi hamda barcha viloyatlar, tuman va shaharlarga yetkazilib, amaliyotga kiritildi.

Shu bilan birga, respublika hududlarida jinoyatchilikning salbiy tendensiyalari va omillarini aniqlash maqsadida aholi o‘rtasida 10 dan ortiq sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazilib, ularning natijalari asosida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Institutning ilmiy-tahliliy salohiyati “Yuksalish” harakati tomonidan ham e‘tirof etilib, institut mamlakatda faoliyat yuritayotgan TOP-20 ta aql markazlari ro‘yxatiga kiritildi.

Institutning ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasida 30 ga yaqin texnika vositalarini tayyorlash imkoniyati o‘rganilib, 9 ta innovatsion loyiha ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, “Yig‘iluvchi qalqon”, “Kichik hajmli JPS treker”, “Xavfsiz sayohat” va “Sergaklantiruvchi qurilma” yaratilib, tajriba-sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

– Muassasada amalga oshirilayotgan

ko‘plab ijobiy ishlarni ko‘rib, rosti havasim keldi, – deydi IIV Malaka oshirish instituti boshlig‘i, texnika fanlari nomzodi, professor, polkovnik Olimjon Ahmedov. – Shu bois jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha bu yerda olib borilayotgan tadqiqot ishlari va yaratilayotgan zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish jarayonida mustahkam hamkorlik qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlarning amaliy natijadorligini ta‘minlash borasida ham samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2026-yilning birinchi yarmida avvalgi yillarda boshlangan 11 ta tadqiqot loyihasi yakunlandi. Shuningdek, jamoatchilik asosida 26 ta, vazirlik va idoralar buyurtmasi asosida 4 ta ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi ishga tushirildi. Bundan tashqari, Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e‘lon qilingan 14 ta ilmiy-amaliy tadqiqot loyi-

hasi tanlovida ishtirok etish uchun hujjatlar yuborildi.

Institut tashkil etilganidan buyon yakunlangan 21 ta tadqiqot loyihasining 8 tasi hududlardagi kriminogen vaziyat, 11 tasi jinoyat turlari va 2 tasi Ichki ishlar vazirligi tarkibiy tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish bilan bog‘liq. Tadqiqotlar natijasida 200 dan ortiq ilmiy asoslangan taklif ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirishda ham ilmiy yondashuvga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Institutga 63 ta mahalla birlashtirilgan, ularda *ilmiy xulosa – tavsiya – natija* tamoyili asosida o‘rganishlar olib borildi. Natijada mazkur mahallalarning 41,2 foizida, ya‘ni 63 tadan 26 tasida jinoyat sodir etilishiga umuman yo‘l qo‘yilmadi.

Ushbu mahallalarda profilaktika ishlari ni ilmiy-uslubiy jihatdan ta‘minlash maq-

sadida “mahalla yettiligi” a‘zolariga 31 turdagi 9 968 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda fuqarolarni ogohlikka chaqirishga qaratilgan 10 mingdan ortiq flayer va bukletlar ishlab chiqilib, tarqatildi.

Xalqaro hamkorlik doirasida ham yangi natijalarga erishilmoqda. Joriy yilning birinchi yarim yilligida 3 ta milliy va 2 ta xorijiy ilmiy-ta‘lim tashkiloti bilan o‘zaro anglashuv memorandumlari imzolandi. Institut tashkil etilganidan buyon esa hamkor tashkilotlar soni 21 ta milliy va 11 ta xorijiy ilmiy-ta‘lim muassasasini tashkil etmoqda.

Shuningdek, institutga 10 dan ortiq xorijiy mutaxassislar tashrif buyurib, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish masalalari muhokama qilindi. Institut xodimlarining xorijiy ilmiy-amaliy tadbirlarda ishtiroki ta‘minlanib, 2 nafar ilmiy xodim Rossiya Federatsiyasining V.Yakovlev nomidagi Ural davlat yuridik universitetida ilmiy stajirovka o‘tadi.

Kriminologiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning yana bir muhim yo‘nalishi sifatida Koreya xalqaro hamkorlik agentligining O‘zbekistondagi ofisi homiyligida “O‘zbekiston Respublikasi davlat xodimlari uchun milliy giyohvand moddalarni nazorat qilish bo‘yicha salohiyatni oshirish” nomli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi ishga tushirildi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Jinoyatlarning oldini olish va jinoiy odil sudlov dasturi” institutlari tarmog‘iga a‘zo bo‘lish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda.

Kengash yig‘ilishida mazkur natijalar bilan bir qatorda institutning 2026-yil birinchi yarim yillikdagi faoliyati, tayyorlangan ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishi, Ilmiy kengashlar va Markazlararo komissiya faoliyati, xalqaro hamkorlik, xalqaro indekslar bilan ishlash holati hamda laboratoriyalar faoliyati muhokama qilinadi.

Umuman olganda, Kriminologiya kengashining navbatdagi yig‘ilishi jinoyatchilikka qarshi kurashishda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini kuchaytirish, ilmiy tadqiqotlarning amaliy natijadorligini oshirish, hududlarda manzilli profilaktik yondashuvlarni rivojlantirish hamda O‘zbekistonning kriminologiya sohasidagi ilmiy salohiyatini milliy va xalqaro maydonda yanada mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni belgilab berdi.

Sadoqat NURUMBETOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya
tadqiqot instituti ilmiy kotibi,
podpolkovnik, yuridik fanlar doktori
(DSc), dotsent

Qutlov

Vatan nedir?

O‘n yillar oldin qo‘shni davlatlardan biriga mehmonga borganmiz. Mehmon-dorchilik zo‘r bo‘lgan, ammo chegarada forma kiygan qardoshimning qat‘iy va o‘ta rasmiy muomalasidan shunday ta‘sirlanganmanki, chegaralar orasidagi masofadan o‘tib, “O‘zbekiston” degan yozuvni ko‘rganimda yig‘lab yuborganman.

Oddiy qamishlar o‘sgan zovurlar, g‘o‘zapoyalar yastangan dalalar, shovullagan teraklarni qo‘msab qirg‘og‘idan toshgan yoshlar... Vatan tuyg‘usi shu bo‘lsa kerak, deb o‘ylaganman. Olimpiada, jahon chempionatlarida sportchilarimizning g‘alabalaridan hayajonga tushganimiz, yig‘lab-yig‘lab quvonganimiz, maydonda bexos yiqilgan o‘zbek o‘g‘loni bilan birga yiqilganday bo‘lganimiz, ringda zarba yeganida “oh” tortib yuborganimizdagi kechinmalarimiz Vatan tuyg‘usidir, balki.

Musofirlikda yurgan eldoshimga zahmat yetganini eshitganimdagi qalb og‘rig‘i, xorij davlatlarida ko‘zimga olovday ko‘ringan atlas, do‘ppi zavqi, o‘z tiliga xos nutq bilan o‘zbekcha so‘zlayotgan ajnabiy zamindoshimning kalomidan dilimga yetgan xushnudlik – Vatanga oshiqlikmikan?

Yurt madhiyasini kuylaganda har bir o‘quvchim ko‘zida chaqnagan uchqunni ko‘rganimda tuyganim – faxr va iftixor – Vatan, menimcha! Ona tilim, onajon tilim orasiga o‘zga so‘zlarni tirkashganda uyg‘ongan norozilik ham Vatan tuyg‘usidir.

Vatan – Prezidentim jahon minbarlarida turkiyzabon nutq irod etganida tuygan g‘urur, Yurtboshimning ko‘zlaridagi ishonch, har nutqidagi “Aziz bolalarim!” deya boshlanadigan da‘vatda boshqa hech qachon his qilmaganim, o‘sha oniy kechinma – Vatani borlardagina bo‘ladigan baxt va saodatdir! Vatanni sevmok balandparvoz gap emas. Lekin uni so‘z bilan ifoda etishning ham imkonini yo‘q, aslida. Vatanni, uning sevgisini faqat his qilish mumkin, xolos.

Guldiyorm, men – sening navqiron va obodligingdan baxtiyor farzanding, ustoz nomi osmon qadar yuksalayotganidan boshi ko‘klarga yetgan, yosh avlod tarbiyasidan shodlik tuyib, kasbidan e‘zoz topgan oddiy o‘qituvchi, farzandlari Yangi O‘zbekiston deya atalmish taraqqiyot maskanida yashayotganidan, yoshlarga berilayotgan sharoit va imkoniyatlardan hayrat va hayajoni cheksiz oddiy ona sifatida o‘ttiz besh yillik to‘ying bilan qutlayman! Tinchliging, betakrorliging uchun Ollohga ming bor shukr. Seni sevaman, O‘zbekistonim!

Zuhra OTAJONOVA,
Shovot tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi



– Assalomu alaykum, oyijon, – dedi kelinim ishdan horib qaytganimni ko‘rib, – keldingizmi, charchamadingizmi?

– Yo‘q, – deyman, garchi jismimda ketmonda chopiq qilgandek horg‘inlik bo‘lsa ham, – charchamadim. Nabiralarim chug‘urlashib o‘rab olishadi. Birovi sumkam, yana biri etagimga yopishadi, birovi qo‘llarimdan ushlab olarkan, bugun uyga kim kelib ketdi, qanday voqealar bo‘ldi – barchasi haqida ma‘lumot yetkazadi. “Bolali uyda sir yotmas” deganlari shu bo‘lsa kerak-da.

– Voy, o‘zimning “josuslarim”dan deb erkalab qo‘yaman.

– Momojon, – deydi olti yoshli nabiram munchoqdek ko‘zlarini javdiratib, – biznikiga bugun bir amaki keldi. Chip-chiroyli mashinasi bor ekan. Xuddi Sobirboyning mashinasiga o‘xshaydi. U qarindoshingizmi, sizni so‘radi. Ayam maktabda ekanligingizni aytgach, hovlimizga kirmadi. Sizni to‘yga aytib ketdi. Momojon, men ham to‘yga boray...

– Odobli bolalar to‘yga borishmaydi. Uyat bo‘ladi, qizim.

– Kim to‘yga aytib ketdi, bolam? – deyman kelinimga qarab.

– Tanimadim, oti Alisher aka ekan. Oyingiz biladi. Nabiralarimga sunnat to‘yi qilyapman. Iltimos, taklifnomani berib qo‘ying, albatta, to‘yga o‘tsin, – deya tayinladi.

– Alisher aka... Ha, Alisher akami? Qarshidan ekanmi?

– Ha, Qarshidan. Taklifnomani kitob javoniga qo‘ydim.

Tanishlarim orasida birgina Alisher aka bor. U ham bo‘lsa kursdosh dugonam Nargizaning turmush o‘rtog‘i. Demak, nabiralariga to‘y qilayotgan ekan-da. Vaqtning o‘tishini qarang-a?! “Umr – oqar daryo”. Kechagina...

Dugonam Nargiza meni yigiti bilan tanishtirdi.

– Bu kishi Alisher akam. Toshkentda yuridik universitetda o‘qiydi.

– Bu Bahor, kursdoshim – eng yaqin dugonam.

Alisher aka jiddiy, bosiqlik ko‘rinsa-da, ochiqko‘ngil, xushchaqchaq yigit ekan. Bizga latifalar aytib, rosa kuldirdi. Nargiza Alisher akani juda yaxshi ko‘rardi. Ikkalasi ikki shaharda o‘qiyotgani uchun xavotir olardi, o‘zicha kimlardandir qizg‘anardi. U paytlari telefonlar anqoning urug‘iday gap edi. Ikki-uch oyda, ba‘zan undan ham ko‘proq vaqt ko‘risholmay, tez-tez maktub orqali xabarlashishardi. O‘qishimizning oxirgi yillari oila qurishdi.

Institutni yakunlagach, hammamiz tuman-tumanimizga tarqab ketdik. Men ham oilali bo‘ldim. Oila tashvishlari, ish bilan mashg‘ul bo‘lib dugonam bilan uzoq ko‘rishga olmadik.

Yillar... misoli shamoldek yelib boryapti. O‘z tashvishimiz, o‘z dardlarimiz bilan andarmon edik.

Bir yili Qarshi shahriga malaka oshirish institutiga bordim. Bekor vaqtimda qadrdon institut hovlisini tomosha qilib, talabalik damlarni xotirlab aylanib chiqdim. Bir kitob do‘koni eng sevimli joyimiz edi. Yangi kitoblar kelsa, quruq qolmaslik uchun bu do‘konga kuniga ikki-uch kirardik. U yerda yoshi ulug‘roq kishi sotuvchilik qilardi. Negadir menga mehribon edi. Yangi kitoblar kelsa, albatta, ilinardi. “Qizim, sizga olib qo‘yibman” derdi. O‘sha amaki omonmikan? Shularni xayolimdan o‘tkazib, boshqa joyga ko‘chirilgan do‘konni izlab topdim. Shinam kitob do‘koniga kirib, kitoblarni ko‘ra boshladim. Kimdir yonimga kelib:

– Bahor, bu sizmisiz? Bahorsiz-a!/? – dedi.

– Alisher aka?!

Men ham tilla topgan kishidek suyunib ketdim. Salomlashdik, Nargizani so‘radim.

– Dugonangiz yaxshi yuribdi, – dedi-yu, kayfiyati o‘zgardi. – Yaxshiyam, sizni ko‘rib qoldim. Ikkalamiz xoliroq joyda gaplashsak bo‘ladimi?

Universitet hovlisidagi bo‘sh turgan o‘rindiqa borib o‘tirdik. U kishi ancha mahal jim turdi. Alisher akaning sukut saqlashi mening yuragimga g‘ulg‘ula soldi (ehtimol, gapni nimadan boshlashni bilmayotgandir).

– Tinchlikmi? Nargiza sog‘mi? Unga biron narsa bo‘ldimi? Nima gap?

– Dugonangiz sog‘-salamat. Hammasi joyida... Faqat sizga nima deb tushuntirishni bilmayapman. Oilamiz buzilib ketish arafasida turibdi.

– Nima-a? Sizlarga nima bo‘ldi? Adashmasam, ikki o‘g‘lingiz borov?!

– Sizga aytsam, shu dugonangizga gap uqtirib bo‘lmay qoldi. Bir paytlar “Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, beg‘ubor Nargiza emas. Uyga borishga ham yuragim bezillab qoldi. Ayniqsa, bolalarning oldida juda uyat. “Uyat – o‘limdan qattiq” deganlaridek, andisha meni o‘ldiradi, ishimni bilasiz, davlat odamiman – vaqtida kelish, vaqtida ketish yo‘q. Kechiksam, birov bilan uchrashib yuribsiz deb, holi-jonimga qo‘ymaydi. O‘tirsam o‘poq, tursam so‘poq. Biror narsani tushuntirib bo‘lmaydi. Nima qilishni bilmay, boshim qotib qoldi. Avvalgi mehribon Nargizadan asar ham qolmagan. Undagi o‘zgarish, qiliqlari, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqishlari jonimga tegdi...

Ikki oydan buyon otamning uyida yashayapman. “Chiqqan qiz chig‘iridan tashqari” deganlariday, chiqqan o‘g‘il ham qaytib borsa, qiyin bo‘larkan. Ota-onam bor, lekin ukam va kelinim oldida xijolat bo‘lyapman. Nar-

RUHSHUNOS

Hikoya

giza sizni

juda hurmat qilardi. Nasihatlaringizga quloq solsa kerak. Shunga dugonangiz bilan gaplashib bering. Keyin taqdirimdan ko‘raman.

Ikkimiz anchagina jim o‘tirdik.

– Yaxshi, biror tadbir o‘ylab ko‘raman. Lekin keyinchalik ham ko‘rishganimiz, gaplashganimizni Nargizaga aytmang.

Nargiza, haqiqatan, juda sodda, birov nima desa, shunga ishonadigan, gapning oldi-ortini ko‘pam o‘ylamaydigan qiz edi. Kimdir ishonтира bo‘ldi, u haqiqatga aylanardi. Hanuz shu fe‘l-atvori o‘zgarmabdi-da.

Alisher akadan uy manzilini olib qoldim. Xayrlashar ekanmiz, unga juda rahmim keldi:

– Vijdoningiz oldida pokmisiz? Ishonsam bo‘ladimi?

– Vijdonim oldida ham, Olloh oldida ham to‘g‘ri-man, – Alisher aka ko‘zlarimga tik qaradi.

Malaka oshirish instituti yotoqxonasiga keldim-u, Alisher akaning gaplarini xayolimdan quva olmadim. Nargiza Alisher akani qanchalik sevishini bilardim. U kishidan maktub yo xabar kelmay qolsa, yig‘lab olardi. Muhabbat va nafratning orasi bir qadam deb bekorga aytishmagan ekan-da. Nahotki, shu gap rost bo‘lsa?

Ertasi kuni darsdan so‘ng tavakkal qilib yo‘lga tushdim. O‘ychi o‘yini bitkazguncha, tavakkalchi ishini bitiradi, derdi otam rahmatli doim. Eski shaharda u-bu narsa olgan kishi bo‘lib, bozor aylandim. Meva-cheva olib, dugonam yashaydigan hovli tomon yurdim. O‘tib ketayotgan kishi bo‘lib biroz kutdim, qanday kirib borishni o‘ylab turgandim. Shu payti hovli darvozasini ochildi. Ikki bola quvlashmachoq o‘ynabmi, birin-ketin yugurib chiqib keldi. Zum o‘tmay, ularning onasi Nargiza “Hoy sekin... sekin... yiqilasan, shoshma...” degancha chiqdi. O‘g‘illarini hovliga kiritayotib menga ko‘zi tushdi.

– Baho-o-or!!! Dugonajon, o‘zingmisan?! Qayerdan paydo bo‘lib qolding? Osmondan tushdingmi yo yerdan chiqding? Biz tomonlarga qaysi shamol uchirdi?

– Qarshining shamoli-da!

– O‘zim aylanay sendan, voy nima qilib turibsan? Uyga kir! – holi-jonimga qo‘ymay, uyiga taklif qilardi. – Kel, dugonajon, seni, qizlarimizni juda sog‘inganman, tushlarimda ko‘raman. Doimgidek institutda o‘qiyotgan, ustozlar saboq berayotgan bo‘ladi. Birdan uyg‘onib ketaman. Eh, qaniydi, shu davrlar qaytib kelsa. Bugun ertalab seni eslagan edim. Nima qilayotgan bo‘lsa deb...

– Xizrni yo‘qlamaysanmi?

– Seni juda sog‘inganman. Aytadigan gaplarim ko‘payib ketgan.

Bir-birimiz bilan qayta-qayta quchoqlashib uyiga kirdik. Birgalashib ovqat tayyorladik. Bolalarni uxlatib, allamahalgacha gurunglashdik. Talabalik yillari, ustozlar, kursdoshlarni yodga oldik. Kulgili voqealarni xotirlab kulishdik. O‘sha beg‘ubor damlarga

qaytdik. Qanday ajoyib damlar ekan-a? Biz juda xursand edik. Sekin Alisher akani eslatdim.

– Alisher aka qani? Qayerda ishlayapti? – savolimdan so‘ng, Nargiza xafa bo‘lib yig‘ladi.

– U kishi menga xiyonat qilyapti...

– Xiyonat qilyapti? Bu gap qayerdan chiqdi? Ushlab oldingmi, o‘rtoqjon?

– Yo‘q, ko‘nglim sezadi, ko‘nglim...

Angladimki, kimdir unga shunday degan. Ishonuvchan emasmi, laqqa tushib, o‘z turmushini o‘zi buzayapti.

– Alisher aka unaqa odam emas, diyonatli inson.

– Odamning olasi ichida bo‘larkan. Shu mansabga ko‘tarildi-yu, aynidi-qoldi.

Alisher aka Nargizadan qanchalik xafa bo‘lib gapirgan bo‘lsa, Nargiza ham u kishidan shunchalik xafa edi. Uning nazarida turmush o‘rtog‘i...

Uning ham dardlarini jimgina eshitdim. Endi nima qilish haqida o‘ylardim. Nima qilsam, Alisher akaning yaxshi inson ekaniga ishonтира olaman? Xayolimdan ming bir o‘y o‘tdi.

Ertasiga ertalab ketayotib, menga ming so‘m berishini so‘radim(u folbinlarga juda ishonardi).

– Bizda zo‘r folbin bor, uning aytgani-aytgan, degani-degan, – deb maqtab qo‘ydim.

Uning ko‘zlari quvonchdan chaqnaq ketdi.

– Voy dugonajonim, o‘zing shunday yordam qilmasang bo‘lmaydi. Bilasan, onam yo‘q, opa-singlim yo‘q. Yangalarga aytib bo‘lmaydi.

Uning ko‘zlaridagi ishonchni ko‘rib, otamning: “Qalovini topsang, qor yonadi” degan maqolini esladim. O‘zimga o‘zim dedim: “O‘yla, Bahor, o‘yla, nahotki, bir dugonangni to‘g‘ri yo‘lga sololmasang. Agar shu ishni eplolmasang, sadqayi do‘stlik, sadqayi shuncha olgan bilim!”..

Dugonamdan ming so‘m (unda ishonch uyg‘otish uchun) oldim-da, malaka oshirish institutiga jo‘nadim.

Ikki kun indamay yurdim. Dugonamning betoqat bo‘lib kutayotganini bilardim. O‘zim ham ikki kunni arang o‘tkazdim (tadbirim natijasi nima bo‘larkan deb). Uchinchi kuni dars mashg‘ulotlari tugashi bilan bozorga bordim. Olgan pulimni qo‘shib bozorlik qildim. Bo‘ynimda qarz bo‘lib qolmasin, Olloh kechirsin. Nargizaning uyiga yaqinlashgan sayin yuragim hayajondanmi, tez-tez ura boshladi, yaxshiyamki, o‘qituvchiman. U ko‘rishi bilan yugurib huzurimga chiqdi. Zo‘r ish qilgan kishidek o‘zimni xotirjam tutardim. U esa biram hovliqardiki, najot kutayotgani shundoq xatti-harakatidan bilinib turardi.

– Nima dedi? – salomlashmay, birinchi bergan savoli shu bo‘ldi.

– Hovliqmay, uyingga kir! Hamma gap o‘zingda ekan-ku, – dedim. Ichkariga kirdik. Unga Alisher akaning shikoyatini folbinniki qilib, so‘zma-so‘z aytib berdim. Aytgan so‘zlari tuhmat ekani, bundan Alisher akaning ko‘ngli qattiq og‘ringani, unga hech qachon xiyonat qilmagani haqida eshitib, yig‘lab yubordi.

– O‘zim ham ishonmasdim-u... – U o‘ksib-o‘ksib yig‘lardi. Eng sevimli kishisidan ajralish azobini tushunib yetgan, xatolarini qanday tuzatishni o‘ylardi, chog‘i.

Endi u kishining oldiga borib kechirim so‘rashini aytdim. Agar ahvol shu tarzda davom etaversa, turmushlarning buzilib ketarmish, deb ogohlantirib qo‘ydim. U meni qattiq va uzoq quchoqlab turdi. O‘zini tutib olgach:

– Rahmat, o‘rtoqjon, bu yaxshiligingni aslo unutmayman, – dedi hiqillab.

Oradan uch-to‘rt kun o‘tib Alisher aka yo‘qlab keldi.

– Nima qildingiz, Bahor? – dedi yarashganiga xursand bo‘lib.

– Men hech narsa qilmadim, – desam-da, takror-takror so‘rayverdi. Kulib maqtandim:

– Bilasiz-ku, o‘qituvchiman, bizga psixologiyani zo‘r o‘qitishgan.

Biroq sirni aytmadim. Shu lahza o‘zimga bog‘liq bo‘lmagan bir fikr xayolimdan yarq etib o‘tdi: “Yolg‘onimni Olloh kechirsin!”

Risolat JUMANAZAROVA,
Qamashi tumanidagi
95-maktabning ona tili va adabiyot
fani o‘qituvchisi



Salomatlik – tuman boylik

BOTULIZM KASALLIGIDAN OGOH BO‘LING!



Aholi salomatligini asrash – muhim vazifalardan biri. Buning eng samarali yo‘li esa ogohlikdir. Chunki har qanday kasallikni davolashdan ko‘ra, oldini olish yaxshiroqdir. Kuz-qish mavsumida aholi o‘rtasida botulizm, ya‘ni ovqatdan zaharlanish ko‘proq uchraydi. Bu esa asosan uy sharoitida konserva tayyorlashda sanitariya qoida va me‘yorlariga rioya qilinmasligi natijasida kelib chiqmoqda.

Bugun bozorlarimizda deyarli barcha oziq-ovqat, jumladan konservalangan mahsulotlarni topish mumkin, ammo ularning barchasini ham sifatli deb bo‘lmaydi. Achinarlisi, ba‘zilar bozorga olib kelingan mahsulotlarni bozor huzurida faoliyat olib borayotgan mas‘ul xodim ko‘rigidan o‘tkazmay sotishga urinadi. Bu esa aholi salomatligiga xavf tug‘dirishi tabiiy.

Konserva tayyorlashda botulizm qo‘zg‘atuvchi sporalar yuqori termik ishlov berish natijasida o‘lib ketishi kerak. Uy sharoitida konserva tayyorlash texnologiyasiga to‘liq amal qilinmasligi, yetarli bosimda termik ishlov berilmasligi sporalarning saqlanib qolishi va rivojlanib, o‘ta kuchli botulin zahri hosil bo‘lishiga olib keladi.

Botulizm – ovqatdan zaharlanishlar ichida og‘ir kechadigan kasallikdir. Bu kasallik botulizm tayoqchalari bilan zararlangan ovqat iste‘mol qilinganda vujudga keladi va markaziy asab tizimining shikastlanishi bilan kechadi. Botulizm tayoqchalari tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, tuproq, suv, hayvon, baliqlar ichagida uchraydi va qobiq ichida yillar davomida saqlanadi. Kislorodsiz va qulay sharoitda ko‘payadi hamda inson uchun xavfli bo‘lgan zahar ishlab chiqaradi.

Botulizm kasallik qo‘zg‘atuvchisi kislorodsiz sharoitda rivojlanadi. Kislorod bor muhitda maxsus qobiqqa o‘ralib, tashqi muhit omillariga chidamli bo‘ladi va uzoq muddat saqlanishi mumkin. Kolbasa, dudlangan mahsu-

lotlarda ham botulizm qo‘zg‘atuvchisi bo‘lishi mumkin. Aynan konserva botulizm kasalligi rivojlanishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Kasallik qo‘zg‘atuvchilari 120 daraja haroratda 2–2,5 atmosfera bosimida 20 daqiqada o‘ladi. Shuning uchun ham uy sharoitida bunday termik ishlov berish imkoniyati bo‘lmaydi.

Botulizmning asosiy sabablari. Kasallik odamda uy sharoitida termik ishlov berish qoidalariga amal qilinmay tayyorlangan konserva (sabzavot, meva, qo‘ziqorin, go‘sht, baliq), dudlangan tovuq go‘shti, kolbasa mahsulotlari iste‘mol qilinganda kelib chiqadi. Konservalash jarayonida gigiyenik va texnik qoidalarga rioya qilinmasligi natijasida mikrob konserva bankasida yopiq muhitda tez rivojlanadi. Sifati buzilgan konserva mahsulotlari ichida gaz yig‘ilishi natijasida idishning qopqog‘i ko‘tarilib qoladi (bombaj). Bemor odamda bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, og‘iz qurishi, ko‘z oldi qorong‘ilas- hib, narsalar qo‘shaloq bo‘lib ko‘rinishi, ko‘z qorachig‘i kengayishi, nutq buzilishi (afoziya), nafas olish qiyinlashishi, yutinish qiyinlashishi, yurak to‘xtab qolayotgandek tuyulishi kabi holatlar kuzatiladi.

Kasallik qanday kechadi?

Zararlangan ovqat iste‘mol qilinganidan 12–24 soat vaqt o‘tgach yoki 1–5 kundan keyin boshlanadi. Zahar (toksin) ichakda tez so‘rilib, qonga o‘tadi va butun orga-

nizmga tarqalib, asab tizimi, shu bilan birga, mushaklarni shikastlaydi. Bemor faqat kasalxonada davolanadi.

Zamonaviy davo usullari. Botulizmga qarshi zardob, sun‘iy nafas oldirish apparatlarini o‘z vaqtida qo‘llash yaxshi natija beradi. Kasallikning oldini olish uchun konserva tayyorlash tartib-qoidalariga qat‘iy amal qilish, uy sharoitida konserva va oziq-ovqat tayyorlashda sanitariya talablariga rioya qilish talab etiladi.

Davosi. Davolashda botulizmga qarshi maxsus zardob yuboriladi; zond orqali me‘da yuviladi, huqna qilinadi, yurak dorilari beriladi, nafas olish izdan chiqqanda sun‘iy nafas oldiriladi.

Kasallikning oldini olish uchun uy sharoitida konserva tayyorlash jarayonida sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilish zarur, qolaversa, konserva mahsulotlarini tayyorlashda sabzavot, meva, qo‘ziqorin va ko‘katlarning sifatiga ahamiyat berish, ularni oqar suvda, so‘ng qaynatilgan suvda yaxshilab yuvish, yuqori harorat ostida 20 daqiqadan kam bo‘lmagan vaqt davomida qaynatish, nordon bo‘lmagan mahsulotlardan (bodring, yashil no‘xat) konserva tayyorlashda ularga uksus kislotasi qo‘shish kerak. Tayyorlangan konserva mahsulotlari qorong‘i va salqin joyda saqlanishi kerak. Bozorlarda mahsulot yorlig‘i yo‘q, uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlarini sotib olmaslik va do‘konlardan konserva mahsulotlarini sotib olish jarayonida mahsulot yorlig‘i, ishlab chiqargan korxona nomi, sana va yaroqlilik muddatiga e‘tibor berish lozim.

Ulug‘bek DONIYOROV,

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Virtual qabulxona binosida favqulodda vaziyatlar bo‘linmasi inspektori, kapitan

Aminov Zafar Zayirovichning 14.00.33 – Jamiyat salomatligi. Sog‘liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo‘yicha “Kredit-modul va masofaviy ta‘lim texnologiyalari tamoyillari asosida umumiy amaliyot shifokorlarini tayyorlashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: sammu@sammu.uz

Abidova Malikaxon Davron qizining 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo‘yicha “Bolalarda raxitga o‘xshash kasalliklarning klinik-funksional va molekulyar-genetik xususiyatlari” (Клинико-функциональные и молекулярно-генетические особенности рахитоподобных заболеваний у детей) mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy.

Tel/faks: (78) 150-78-25; e-mail: info@tashmeduni.uz

G‘aniyeva Marhabo Yuldash qizining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Yillik tayyorgarlik bosqichida stol tennischilarining texnik tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01raqamliilmiykengashning2026-yil8-sentabr kunisoat16:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Asanova Natalya Vladimirovnaning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Yillik tayyorgarlik bosqichida stol tennischilarining texnik tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Kurbaniyazova Feruza Zafarjonovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo‘yicha ““Yupqa” endometriy mavjud bo‘lgan ayollarni homiladorlikka tayyorlashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: sammu@sammu.uz

Sattarov Umidulla Ulashovichning 09.00.09 – Ma‘naviy jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo‘yicha “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy tendensiyalari (O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi misolida)” mavzusidagi(falsafa fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.21/2025.27.12.F.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi, 9-uy, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti, 3-qavat, 307-xona.

Tel.: (99855) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

Shatursunov Timur Gayratovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Sport tayyorgarligining boshlang‘ich bosqichida yosh dzyudochilarni tayyorlash metodikasi” (Методика тренировки юных дзюдоистов на начальном этапе спортивной подготовки) mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-sentabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

Kurbanova Zamira Shukhratovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo‘yicha “Shakllanayotgan tuxumdon polikistoz sindromi bo‘lgan qizlarda erta tashxis markerlari va birlamchi profilaktika usullari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200100, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.

Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: buhme@mail.ru

Xodjiyev Azizjon Rashid o‘g‘lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Baydarka va kanoeda sportchilarning yuqori sport mahorati bosqichida mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va intensivligini optimallashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz





BIRINCHI QO'NG'IROQ



Maktablarda yangi o'quv yili boshlandi. Ayniqsa, maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'yayotgan birinchi sinf o'quvchilari hayajoni o'zgacha. Shayxontohur tumanidagi 20-maktabda ham yangi o'quv yili ko'tarinki kayfiyatda kutib olindi.

Yangi o'quv yilida mazkur maktabning birinchi sinfiga 140 nafar bola qabul qilinib, ularga Prezident sovg'alari topshirildi. Jajji o'quvchilarning quvonchi, ko'zlaridagi hayajon va beg'ubor tabassumi bayramning eng yorqin manzaralariga aylandi.



YANGI O'QUV YILI MUBORAK BO'LSIN!

Juda ham sog'indik maktab quchog'in,
Juda ham qo'msadiq bilim o'chog'in,
Chamanzor maydonin, mevazor bog'in,
Salom, ona maktab, aziz ustozlar!
Salom, o'quvchilar, shirin ovozlari!

Sizlarni kutmoqda shinam xonalar,
Kitobatga to'la kutubxonalar,
Onangizdek aziz ustoz – onalar,
Salom, ona maktab, aziz ustozlar!
Salom, o'quvchilar, shirin ovozlari!

Yangi islohotlar kutmoqda sizni,
Yangicha darsliklar kutmoqda sizni,
Omadlar yo'qlasin bizni ham sizni,
Salom, ona maktab, aziz ustozlar!
Salom, o'quvchilar, shirin ovozlari!

Vatanning umidi sizlardan katta,
El-u yurt ishonchi bizlarga katta,
Yutuqlar keladi, kelar, albatta,
Salom, ona maktab, aziz ustozlar!
Salom, o'quvchilar, shirin ovozlari!

Abdurashid ERGASHEV,
Asaka tumanidagi 26-maktab o'qituvchisi



Burhon Rizoqulov olgan suratlar.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V- 6185. Tiraji-6880.
Hajmi: 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi: A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (99) 866-02-67



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib bosish
tahririyat ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar
taqzir qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni skanerlang:



Ⓛ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher
Navoiy ko'chasi, 30-uy.